


QOBILOV SHAVKAT RASHIDOVICH

TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI

(PEDAGOGIK TASVIRLAR ISHLASH)



Qobilov Shavkat Rashidovich

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi

(PEDAGOGIK TASVIRLAR ISHLASH)

*Bakalavriatning
5110800 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi, ta'lin yo'nalishlari uchun
o'quv qo'llanma*

Annotasiya

Mazkur o'quv qo'llanma 5110800 - "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" o'quv fanining muhim kursi – Pedagogik tasvirlar ishlashning nazariy va amaliy asoslarini o'rgatishga bag'ishlangan. Kitobda bo'lajak pedagog – rassomlar tayorlashda pedagogik rasmning ahamiyati keng yoritilgan.

Аннотация

Данное учебное пособие посвящено важному разделу учебного курса «Методика преподавания изобразительного искусства по направлению образования «Изобразительное искусство и инженерная графика». В ней раскрываются теоретические и практические основы и положения педагогического рисунка как неотъемлемой части подготовки будущих педагогов – художников.

Annotation

This textbook is devoted to educational direction of 5110800 Fine Art and engineering of drawing, important course of subject "The method of teaching Fine Art" and learning of practical and theoretically. Bases of subject.

In this book is widely given the importance of pedagogical drawing for future teachers preparing drawings.

Taqrizchilar:

Botir Boymetov, Nizomiy nomidagi TDPU Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi ijodkorlar uyushmasi a'zosi, professor.

Olim Samadov, Buxoro Davlat universiteti «San'at» kafedrası dotsenti.

Оппоненты:

Ботир Бойметов, профессор, заведующий кафедрой «Методика преподавания изобразительному искусству», Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами, член художественной академии республики Узбекистан.

Олим Самадов, доцент кафедры «Искусство» Бухарского государственного университета

Reviewers

Botir Boymetov – professor, the member of creators union of the Art Academy of Uzbekistan, the head of department of fine Arts and its teaching methods of Tashkent State Pedagogical University named after Nizomiy;

Olim Samadov - dotsent, Fine Arts department of Bukhara State University.

SO'Z BOSHI

O'zbekiston mustaqilligi natijasida yuz bergan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim sohasida ham tub islohotlar o'tkazishni, ta'lim – tarbiyaviy ishlarni davr talablari darajasiga olib chiqishni taqazo etmoqda. Shu boisdan ham “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning “Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari” qismida ta'limning ijtimoiylashuvi – ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish alohida qayd qilinadi.¹

Milliy dasturda ko'zda tutilganidek, o'quvchilarning estetik ongini shakllantirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, ayniqsa, tasviriy san'atdan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson qadim-qadimdan san'at vositalari yordamida o'z hayotini go'zal qilishga intilgan. Buni anglash uchun avlodlarimizdan meros qolgan me'moriy-madaniy yodgorliklar va tasvirlarga diqqat bilan nazar tashlash kifoya qiladi. Ularning barcha-barchasini rassom, me'mor mehnati mahsuli deyishimiz mumkin.

Siz ham qo'lga qalam oldingiz. Istagingiz – biror - bir narsani, voqea yo'ki hodisani qog'ozga tushirish. Lekin yuragingizni to'lqinlantirgan, chizishga undagan go'zallik tasviri o'ziga o'xshash chiqmadi. Bu jarayonda qalamni tashlab yuborishga shoshilmang. Sizda, eng avvalo, istak va shijoat bor. O'zingizda ozgina chidam va qunt topishga erishsangiz, sizdan ajoyib musavvir chiqishiga imonimiz komil.

Buning uchun diqqatingizga havola etilayotgan kitobni diqqat bilan o'qib chiqing. Xotira va tasavurdan chizish uchun tavsiya qilinayotgan asosiy qoida va usullarga e'tibor bering. Biz tavsiya etayotgan usullarni o'zingiz odat qilgan usullar bilan solishtiring. Zero, dunyo tan olgan, o'zidan o'lmas asarlar qoldirib ketgan buyuk musavvir Leonardo da Vinchi “Amaliyotga ilmsiz mehr qo'yadigan kishilar rulsiz yoki kompassiz suzishga kirishayotgan daholarga o'xshaydilar, chunki ular qaerga ketayotganlarini hech mahal bilmaydilar, shu sababli oldin ilmni o'rgan, so'ngra esa shu ilm orqasidan tug'ilgan amaliyotga murojaat qil” deya bejiz ta'kidlamagan edi. Shu sababli kitobda tasvirlash san'atiga havas qo'ygan, rasm chizish san'atini o'rganishga ahd qilgan yosh – talabalar uchun boshlang'ich nazariy va amaliy ma'lumotlarni berish, ularni ijodiy faoliyatga yo'naltirishga harakat qildik. O'ylaymizki, yosh rassomlar undan o'ziga kerakli va foydali ma'lumotlarni topadi.

Qo'llanmani ishlab chiqishda muallifning ilmiy ish tajribasiga tayanildi. Kitob qalam tasvir fani bo'yicha mustaqil ta'lim jarayonida quyi bosqich talabalari ijodiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan.

1.Kadrlar tayorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – 44 – bet.

Matnda keltirilgan topshiriq va vazifalari muallif tomonidan ishlab chiqqan tajriba sinov o'quv dasturi asosida tuzilgan. Qo'llanmadan san'at kollejlari va lisey o'quvchilari xam foydalanishi mumkin.

Namunalar keltirishda talabalar ishlari, internet materiallari hamda mashhur rassom, rassom – pedagoglarning nazaridan o'tqazilgan mavzularga daxldor rasmlaridan foydalanildi. Bular tavsiya qilingan o'quv materialining talabalar tomonidan tez egallab olinishi uchun xizmat qilishi shubhasiz.

1-bob. Pedagogik rasm asoslari



Pedagogik rasm. Qalamtasvir fanini o'qitish vazifalari. Qadimgi davrlarda rasm chizish san'ati tarixi. Qadimgi Misr madaniyati va san'ati. Qadimgi Misrda rasm va chizmachilik fan sifatida. Qadimgi grek hamda Uyg'onish davri rassomlarining rasm chizish san'atini rivojlantirishdagi xizmatlari.

Pedagogik rasmni o'qitish vazifalari

Pedagog rasm – bu mustaqil ahamiyatga ega bo'lmagan holda pedagogning o'y- fikrlarini tushuntirish so'zi bilan bir qatorda grafik holda ifodalash vositasidir. Bu yerda o'quv materialini tushuntirish bosh o'rinni egallaydi, pedagog rasm esa uni to'ldiruvchidir. Shu uchun pedagog rasm yaizilayotgan qog'ozda yoki doskada bajarilishi mumkin. Bu yerda eng asosiy narsa uning uslubiy yo'naltirilganligi bosh o'rinni egallaydi. Pedagogik rasm o'rganuvchining chizayotgan ishi chetiga o'qituvchi tomonidan tez, ishonarli tarzda hamda uning tushuntirish so'zi bilan to'ldirilgan holda bajarilishi mavzuni aniq, to'liq tushunib olishga imkon yaratadi.

O'qituvchining talabani o'rniga o'tirib ishini bajarish ketma – ketligini, uni konstruktiv qurilishini, soya – yorug'liklarini shtrixlar asosida berishni ko'rsatishi o'rganuvchining ijodiy rivojlanishini nafaqat rivojlantiradi, balki, aksincha to'sib qo'yadi. Uni o'z kuchiga ishonmaslik holatini keltirib chiqaradi. Bundan kelib chiqadiki pedagogik jarayonda o'qituvchining so'zi eng asosiy o'rinda bo'lib rasm esa to'ldiruvchi vosita hisoblanib o'rgatishda muhim o'rinni egallaydi.

Sinf doskasida rasm chizish bo'lajak rassom – pedagoglar uchun muhim ahamiyatga egadir. Doskada rasm chizish ko'rgazmalilik printipining muhim vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Yangi mavzuni og'zaki tushuntirish bilan bir qatorda qisqa muddat ichida chizilgan tasvir o'quvchilarni idrok qilish jarayonini tezlashtiradi. Chizuvchi doskada shakllarning tuzilish qonuniyatlarini, naturani chizish ketma – ketligini chizib ko'rsatishi zarurdir. Biroq doskada tez, malakali rasm chizish o'qituvchidan bir qator maxsus mashqlarni bajarishni bu sohada etarli ko'nikma va malakaga ega bo'lishni talab etadi. Bu uchun talaba eng avvalo qalamtasvir darslarida olgan bilimlarini amalda namoyish etish zaruriyati tug'iladi. Ma'lumki qalamtasvir darslarida chiziladigan barcha naturalar ma'lum ketma – ketlik asosidatasvirni qurishni talab qiladi. Sinf doskasida rasm chizish ham xuddi shunday ma'lum ketma – ketlikka rioya qilishni talab etadi. Tasvirni qurish usullarini yaxshi bilish chizuvchining doskada rasmni ishonchli, tez va aniq chiqishi imkonini beradi.

Xotira va tasavvur asosida rasm chizish ko'nikma va malakalarini egallash bu o'rinda muhim ahamiyatga egadir.

O'z mohiyatiga ko'ra doskada rasm chizish turlari quyidagilardir: chiziqli rasm, shtrixli rasm, rangli rasm, tusli rasm.

Chiziqli rasmda tasvir bir xil qalinlik soya – yorug'liksiz ko'rsatiladi.


Shtrixli hajmda esa rasm chizilayotgan rasmda chiziqli rasm soya – yorug'liklar vositasida hajm berishga ya'ni asosiy soya – yorug'liklar ko'rsatiladi.

Rangli rasmda chiziqli rasm rangli bo'rlar yordamida asosiy rang holatlari ko'rsatiladi. Tusli rasmda esa tasvirning yorug' joylari qo'l, ho'llangan latta yordamida yorug' joylari olinadi.

Doskada rasm chizishning muhim bir jihati tasvirda chiziqlarning turli yo'g'onlikda bo'lishi, shtrix, tus nuqtalardan foydalanishdir.


Pedagogik rasm chizish nafaqat sinf doskasida, balki, qog'ozda sous, pastel, ko'mir, akvarel, tush kabi materiallarda ham chizib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Tasviriy san'at o'qituvchisiga dars paytida sinf doskasida bo'r bilan maishiy buyumlar, o'simliklar, qushlar, hayvonlar va odam rasmini xotira bo'yicha bajarishga to'g'ri keladi. U chizgan rasmlar ixcham, ifodali va savodli bo'lishi kerakki, o'quvchilar u yoki bu predmet






b



v

1-a,b,v rasm. Sinf doskasida olma va nokni chizish bosqichlari.



a




b

2 a,b-rasm. Duskada choynakni tasvirlash bosqichi.

tasvirini timsoliy qabul qila olsin. Shu bois har bir talaba bilim olish davrida sinf doskasida pedagogik rasm chizish texnikasini egallab olishi zarur. Bu jarayonda qisqa muddatli, shtrixli, ancha yirik o'lchamli turli predmetlarning xomaki rasmlarini chizish tavsiya etiladi. Albomlarda bajarilgan qisqa muddatli rasmlar kuzatuvchanlikni o'stiruvchi, atrofimizdagi borliqdan tipik va xarakterli bo'lgan

belgilarni tepa olishni rivojlantiruvchi, kompozitsiya mazmunini boyituvchi materiallar bo'lishi bilan muhimdir. Ko'pincha xayolan bajarilgan biron bir motiv xomaki rasm kompozitsiyasini hal etishda asoyiy rol o'ynaydi. Atrof go'zalligi, hayot sahnalari va tabiat hodisalarining xilma-xilligi rassomda doimo kuzatish va chizish, xomaki rasmlarda timsollilikka erishish uchun turli



3-rasm. Harakatdagi odamni tasvirlash.

uslublardan unumli foydalanishga undaydi. Ayniqsa, grafik usullarni o'rinli qo'llash tasvirning ifodali yechimiga zamin yaratadi. Betakror rassom Rembrandt “O’rganish, eng avvalo, boy tabiatni idrok qilish va unda ko’rilgan narsalarni aks ettirishdir. Osmon, er, dengiz, hayvonlar yaxshi-yomon odamlar – bularning hammasi bizning mashqlarimiz uchun xizmat qiladi”, – degan edi.



4-rasm. Turli predmetlarni tasvirlash.

Qalamtasvir badiiy pedagogika ta'lim tizimidagi asosiy, etakchi fan bo'lib hisoblanadi. Qalam bilan borliqni idrok etish jarayonida chizuvchilar ma'lum texnik ko'nikmalarga ega bo'ladilar, chunonchi, naturadan (narsaning asliga qarab), xotira, tasavvur asosida rasm bajarish jarayonida ularning fazoviy va badiiy fikrlarini rivojlantirish vazifalari bajariladi. Narsaning o'ziga qarab rasm chizish rasmni o'rganishning asosiy shakli bo'lib hisoblanadi. Naturadan rasm ishlash jarayoni bo'lajak pedagog – rassomning ko'rish xotirasi va kuzatuvchanlik xususiyatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy sog'lom yosh avlodni, bo'lajak vatanparvarlarni tarbiyalash o'qituvchi zimmasiga yuklanadi. U nafaqat bilimdon yoshlarni tarbiyalashi, balki eng avvalo, ana shu bilimlarni o'zi mukammal egallab olgan shaxs bo'lishi zarur. Shu jumladan, tasviriy san'at sohasida bilim olayotgan talabaning ham eng asosiy vazifasi o'qituvchi – rassom uchun zarur bo'lgan bilim va malakalarni puxta egallashdir. Shuningdek, ijodkor o'qituvchi oldiga o'sib kelayotgan avlodni badiiy barkamol, yuksak didli, olam va san'at go'zalliklarini to'g'ri tushuna oladigan tarzda tarbiyalash asosiy vazifa qilib qo'yiladi.

Birinchi bosqichdan boshlanadigan qalamtasvir bo'yicha o'quv topshiriqlari perspektiva, plastik anatomiya kabi ilmiy bilim asoslari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birgalikda talabalar o'qituvchi rahbarligida va mustaqil ravishda qalamtasvir bo'yicha usuliy o'quv adabiyotlarini o'rganishlari maqsadga muvofiqdir. Talabalarni rasm bajarish jarayonida didaktik prinsipning asosiy qoidalaridan biri bo'lgan ketma-ketlik usulini qo'llashga o'rgatish zarur. Bu haqda XIX asrning buyuk rus rassom – pedagogi P.Chistyakov shunday degan edi: "Har qanday ish doimiy tartibni talab etadiki, ish o'rtasidan yoki

oxiridan emas, balki eng boshidan, asosidan boshlanadi... Ishda tartib buzilishi zarar etkazadi, adashtiradi va ishni buzadi...”

Rasm asoslarini o'rganish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari natura (narsaning o'ziga qarab), xotira – tasavvurdan chizishni o'rganadilar. Rasm chizishni o'rganishda chiziqli perspektiva qonunlarini o'rganib, amaliyotda qo'llash ham benihoya muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, I kursda kuzatish perspektivasi asoslarini egallash juda muhimdir. Shu bilan birgalikda talaba professional va usuliy tayorgarligida predmetlarning konstruktiv tuzilish qoidalarini o'zlashtirish muhim o'rin egallaydi.

Qalamtasvir bo'yicha o'quv dasturi ma'lum pedagogik tizimga keltirilgan topshiriqlar bajarishga qaratilgan. I semestrda mo'ljallangan o'quv topshiriqlari gipsli (ganch) modellar ustida ishlashni nazarda tutadi. Bu oddiy geometrik figuralar (kub, konus, shar, silindr va h.z.), gipsli bosh modelining qismlari (ko'z, quloq, burun), qadimgi klassik haykal – Mikelanjeloning “David” asari va boshqa antik modellar. Shu bilan birgalikda dasturda turli xil qisqa muddatli rasmlar (qoralama, chizgi) bajarish ham nazarda tutilgan.

Geometrik jismlarni ma'lum bir kompozitsion guruhga tizib ishlash talabalarga rasm chizish qoidalarini (perspektiva, konstruktiv tuzilish, yorug'lik – soya tarqalishi) o'rganishga yordam beradi. Kelajakda talabalarga murakkab jismlarning konstruktiv tuzilishi qoidalarini tushunish va o'zlashtirishda mazkur topshiriqlar asos bo'ladi.

Gipsli mashqlarni tasvirlash mazmuni perspektiva va yorug soya nazariyasini amaliyotda qo'llay olishga qaratilgan.

Antik haykallarning bosh qismlarini tasvirlash odam anatomiyasini chuqur o'rganish va rasm bajarish amaliyotida qo'llashni talab etadi.

II bosqich talabalariga qalamtasvir asoslarini o'rgatishda natyurmortlarni tasvirlashga alohida o'rin ajratilgan.

Natyurmort ustida ishlash jarayonida talabalar kuzatish perspektivasi, narsalarning konstruktiv tuzilishi, yorug'lik – soya tarqalishi qoidalari haqida aniq bilim va ko'nikmalar hosil etadilar. Turli materiallar (shisha, metall, yog'och, mato va h.z.) fakturasini tus orqali ifodalashga o'rganadilar.

I-II jarayonda qisqa muddatli rasmlar bajarish nazarda tutilgan. Chunonchi, II jarayonda odam qomati, qush va hayvonlardan qoralamalar bajarish ko'zda tutilgan. Bu jarayonda ko'zlangan maqsad II bosqichdan boshlab harakatdagi ob'ektlarni tasvirlay olish, naturaning asosiy, tipik holatini bera olishni o'rganishdan iboratdir.


Shu qatorda xotira va tasavvurdan qisqa muddatli rasm bajarishga ham alohida o'rin ajratilgan.

Rasm chizish san'ati tarixidan

Inson tabiatan san'atkordir. U o'z hayotini san'at yordamida go'zal qilishga intiladi. Ibtidoiy davr musavvirlarining ishlariga razm solsak, ular atrofborliqdagi hayvonot olamini suyaklarga, qoya toshlarga tasvirlaganlar. Bu tasvirlarda ovlash vaqti kabi mavzular ko'p uchraydi. Ko'pgina tasvirlar o'zining haqqoniy o'xshashligi, har bir hayvonga xos bo'lgan harakat dinamikasini bera olganligi bilan xarakterlanadi. Bular ibtidoiy rassomning chizayotgan narsasini diqqat bilan kuzatganligi, ayniqsa, hayvonlarning anatomik tuzilishi haqidaga ma'lum bilimlarga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Bular da hayvonlarni yugurayotgan, sakrayotgan yoki o'zini himoya qilayotgan holatlarda ko'rishimiz mumkin. Qoya suratlarida odam tasvirlari ko'p bo'lmasa-da, ularda ovchilar gavdasi, qo'lida kamon, tayoq ushlagan holda hayvonlar orqasidan yugurayotgan kishilarning sxematik tasvirlari uchraydi. Mana shu sxematik tarzda tasvirlarda ham rassom gavda nisbatlariga rioya qilganligini ko'rish mumkin. Bu ham ularning odam anatomiyasi haqidagi bilimlarga ega bo'lganligidan dalolatdir. Demak, vaqt o'tavergani sari insonlar tasviri ustida ishlash mukammallashib, tasvirlarda nafaqat o'xshashlikka intilish, balki ularning ma'lum bir ma'no anglatishiga erishish yo'lida katta kuch sarf etilgan (Saxarada topilgan tasvirlar bunga yorqin misoldir).

Qadimgi Misr rassomlari odam tasvirini tushunishga asoslangan ma'lum bir qonunlarni ishlab chiqqanlarki, bu kelgusida rassomlarga insonni tasvirlashga yordam bergan. Ular devorga yoki toshlarga to'rga o'xshatib chiziqlar tortganlar va ular ichiga odam tasviri yoki devoriy rasmlar ishlaganlar. Qadimgi Misr tasvirlash qonunlaridan yana biri shuki, unda inson tasvirini chizishda ma'lum bir narsa o'lchov birligi sifatida qabul qilingan va bu o'lchov birligi "konon" deb yuritiladi. Ular bu jarayonda o'lchov birligi sifatida o'rta barmoq uzunligini olganlar. Bunda barmoq uzunligi gavdaga nisbatan 19 marta joylashtirilib, tananing me'yordagi nisbati to'g'ri yoki mos deb hisoblangan (1-rasm).

Misr tasvirlash qonunlariga muvofiq inson gavdasida konon oyoq balandligi bir barmoq uzunligida, ko'krak tugmachalari 14-15 bo'linma orasida va h.z. tarzda joylashgan. Bosh qismi to'rt barmoq uzunligiga teng hisoblangan, ettinchi bo'linmada burun uchi, sakkizinchi bo'linmada esa peshona chiziqlari joylashgan. Bu qonun bilan gavdaning to'liq nisbatlari har bir bo'laklarda aniqlab chiqilgan. Masalan, burun kengligi, ko'z, og'iz, ko'krak kengligi va qalinligi, qo'lning aniq o'lchamlari ham o'z ifodasini topgan. Rasmga o'rgatish metodlari bo'yicha taniqli olim N.N.Rostovstevning ta'kidlashiga ko'ra, qadimgi Misr rassomi inson gavdasini xohlagan joyidan boshlab chiza olgan. Ushbu qonun, ayniqsa, katta hajmdagi tasvirlarni chizishda qo'l kelgan. Masalan, ushbu qonun asosida turli joylarda ishlayotgan haykaltaroshlar ma'lum bir haykalning turli qismlarini turli joylarda tayyorlashgan va bu qismlar yig'ilgandan so'ng xuddi bir kishi ishlagandek yaxlit ko'ringan.



5-rasm. Qadimgi misrliklar tasvirlagan odam gavdasi nisbatlari.

Ammo ta'kidlash kerakki, Misr tasvirlash qonuni insonning o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini, jinsi, ya'ni ayol yoki erkakligini, yosh bola yoki o'smirligini hisobga olmagan. Ayol va erkak, katta yoki kichik yoshdagi kishi bir xil o'lcham ostida bajarilgan. Shu qonunlarga rioya qilgan holda Misr rassomi chizayotgan kishisining ijtimoiy mavqeini hisobga olgan. Agar faraonni tasvirlasa, uni atrofidagi narsalarga nisbatan bir necha barobar kattalashtirilgan holda chizgan. Lekin Misr rassomlari ishlab chiqqan qonunlar aniq, plastik anatomiya bilimlariga asoslanganligi bilan qimmatlidir. Unda asosan inson tasviri frontal ko'rinishga ega bo'lgan.


Ilk yunon san'ati o'rganilganda, bu davr rassomlari tana o'lchovlariga kam e'tibor berganliklari ko'rinadi. Faqatgina eramizdan avvalgi V asrga kelib, rassomlar inson gavdasini anatomik jihatdan aniq va to'g'ri tasvirlashga harakat qilishgan. Bu shundan dalolat beradiki, qadimgi yunon rassomlari hayotni bevosita o'rganishga qiziqqanlar. Ular erkak gavdasini tasvirlaganda bo'rtib chiquvchi muskullar tasviriga diqqat qaratishgan, sog'lom ayol tasvirida chiroyli tana shaklini topishga intilishgan.

Qadimgi yunon rassomlari Misr tasvirlash qonunlariga tayangan holda inson gavdasini chizishda ham nazariy, ham amaliy jihatdan oldinga chiqib olganlar. Ular inson gavdasini chizganda plastik, anatomik yechimni ilmiy asos deb qabul qilganlar. Yunon rassomlari chizayotgan narsalarini haqqoniy va aniq tasvirlashga erishish uchun naturani kuzatishga, anatomiyasi, muskullar sistemasi hamda tashqi ifodalariga jiddiy e'tibor qaratganlar.


Eramizdan avvalgi 432 yilda qadimgi Misr haykaltaroshi Poliklet inson tanasining qismlarga bo'linish qonuniyatlari haqida risola yozgan. Mashhur haykaltarosh birinchi bo'lib inson tanasining proporsional qismlarga bo'linishi va tik holdagi gavdasining ichki harakatini ishlab chiqqan. Bu ming yillar davomida qotib qolgan inson tanasi o'lchamlariga o'zgarish yasagan hamda chizilgan tasvirlar hayotiy va aniq chiqishiga olib kelgan. Nazariy asar saqlanmaganligi sababli, qadimgi yozma manbalarga tayangan holda ba'zilar haykaltaroshning o'lchov birligi sifatida qo'l panjasi uzunligini, ba'zilar oyoq panjasi uzunligini, ma'lum bir tadqiqotchilar esa bosh balandligini taxmin qiladilar. O'zining nazariy ishini yaratishda Poliklet "Dorifor" degan haykaldan foydalangan. Poliklet bu haykalida inson nisbatlarini quyidagicha taqsimlagan: yuz qismi – gavdaning o'ndan biri, bosh bilan birgalikda gavdaning oltidan birini tashkil etgan. Uning bu ishi nafaqat rassomlar tayyorlash ishida, balki umumta'lim maktablarida ko'chirish, o'rganish uchun xizmat qilgan. Bu bo'lajak rassomlarga inson tanasining anatomik tuzilishini o'rganish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratgan.

Qadimgi Yunonistonda inson anatomiyasini o'rganish borasida shuhrat qozongan yana bir rassom Polignotdir. U inson gavdasi harakati rangtasvirida yuz hayotiylikiga erishish borasida ko'pgina ishlar qilgan. Obrazlar haqqoniyligi, gavdaning anatomik yechimini diqqat bilan o'rganish, uning nisbatlari, shakl garmoniyasi va harakat aniqligiga erishish ushbu davr rassomi Apellesga xosdir. Yuqorida ko'rsatilganlarni o'rganish rassom uchun inson tasvirini yaratish

jarayonida haqqoniy o'xshashlikka erishishga ko'mak beradi. Bu haqqoniylikka erishish asosida rassomning inson qomati haqidagi chuqur bilimlari yotadi.



6-rasm. “Dorifor” haykali.



7- a, b rasm. Inson qomati nisbatlari.

Qadimgi yunon san'ati namoyandalari haqida gapirsak, ularning plastik anatomiya chuqur bilganligiga guvoh bo'lamiz. Haykallarga diqqat bilan qarasak, har bir muskul joylashuvi, harakati xarakterlidir. Shu davr antik haykali "Laokoon"ni olsak, unda inson gavdasiga xos bo'lmagan muskul zo'riqishlari va harakat dinamikasini ko'ramiz. Ushbu asar mualliflari haykaltaroshlar Agesandr, Polidor va Aleksandrlardir.

Qadimgi yunon rassomlari plastik anatomiya haqidagi bilimlarini perspektiva qoida-qonunlarini qo'llagan holda mustahkamlaganlar.

O'rta asrlar rassomlari, shu soha tadqiqotchilari ma'lumotiga ko'ra, plastik anatomiya haqidagi bilimlarni boyitmaganlar va ularning inson tasviridagi ishlarida

haqqoniylik nisbatlari buzilishi, tana tuzilishining anatomik qonuniyatlariga rioya qilmaslik ko'zga tashlanadi.

Uyg'onish davri – XV-XVII asrlar fan va san'atning rivojlanish davri bo'lib hisoblanadi. Bu davrda nisbatlar, perspektiva, anatomiya, rangshunoslik kabi ilmlar san'at nazariyasi va amaliyotchilari diqqat markazida turgan (7 a, b rasm). Ular o'zlarining nazariy va amaliy ishlarida optika, matematika va anatomiya kabi fanlarning yutuqlariga tayanganlar. Ushbu davr rassomlari anatomiya fanini chuqur o'rganish maqsadida marhumlar jasadlari bilan ishlaganlar.




8-rasm. Leonardo da Vinchi. Avtoportret.

XV asr rassom va haykaltaroshi Lorensto Giberti (1381-1455) “Gippokrat, Abu Ali ibn Sino yoki Galenday vrach bo'lish shart emas, lekin ularning anatomiya haqidagi bilimlari bilan tanishish shart, inson tanasidagi har bir suyak, har bir muskul va tomirni bilish shart” deb ta'kidlagan edi.

Plastik anatomiya bo'yicha birinchi katta tadqiqotchi – italyan rassomi va haykaltaroshi Antonio da Sangallo hisoblanadi (1424-1498).

Florenstiyalik rassom va haykaltarosh, mashhur Leonardo da Vinchining birinchi ustози – Andrey Verrokkio (1435-1488) ham inson tanasini mukammal bilish uchun marhumlarni o'rgangan.


Plastik anatomiya bo'yicha Leonardo da Vinchi (1452-1519) juda katta yutuqlarga erishgan.



9-rasm. Qadimgi davrlarda ishlangan bolalar va o'smirlar gavda nisbatlari.

Leonardo da Vinchi rangtasvir va haykaltaroshlik bilan chegaralanib qolmay, matematika, mexanika, anatomiya va boshqa bir qator fanlar bilan ham shugullangan.

Rassom inson tanasini o'rganish bo'yicha juda ko'p izlanishlar olib borgan. Uning 779 ta rasmlari orasida ko'plab anatomiya rasmlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bunda eng asosiysi tasvirning yaqqol ko'rinishidir. Musavvir tananing har bir qismi, har bir muskulini turli tomondan tasvirlagan. Buning natijasida skelet, qo'l, oyoq suyaklari, muskullar, umuman olganda, tananing har bir qismi yaqqol his qilinadi. (10 rasm)



10-rasm. Leonardo da Vinchi. Qadimgilar kvadrati.


Leonardo da Vinchi anatomiya sohasida amalga oshirgan izlanishlarning o'ziga xos ikkinchi xususiyati odam anatomiyasini o'rganishda ma'lum ketma-ketlikka rioya etganligidir. Rassom inson tanasi, plastikani o'rganishda ishni avvalo skeletni o'rganishdan boshlaydi va har bir suyakni alohida hamda yuqorida ta'kidlaganimizdek, ularni turli tomondan chizadi. So'ng ushbu suyaklarni alohida skeletga yig'adi va unga muskullarni chizadi.

Rassomning anatomiyani o'rganishdagi uchinchi o'ziga xos yo'li shundaki, u dastlab tananing plastik shaklini ilmiy tomondan tushuntiradi. U ayniqsa, o'z diqqatini tananing harakatlanishiga qaratadi. Leonardo da Vinchining o'ziga xos metodlaridan yana biri muskullarni o'rganishdir. Bunda u muskullarning funktsional-anatomik belgilarini o'rganadi, katta muskullarni kichik, alohida qismlarga ajratadi. Ishlarni bajarish jarayonida tananing plastik xarakterini hisobga olgan holda o'z rasmlarida muskullarni qatlam-qatlam qilib birin-ketin joylashtiradiki, buni tana shaklini ketma-ketlikda ko'rish deyish mumkin.

Rassom inson muskullarini birinchi bo'lib tasnif (klassifikatsiya) qiladi. U bunda muskullarning tashqi ko'rinishini, kattaligi, shakl va skeletga birikishini hisobga oladi.

Rassom plastik anatomiyani chuqur o'rgana borish orqali inson gavdasi mutanosib qismlarga bo'linishini, umuman olganda, garmoniyani bilishga

intiladi. Izlanishlar, tarixiy manbalarni o'rganish asosida u o'zining inson gavdasi qonunlari "Qadimgilar kvadrati" yaratadi. Leonardo da Vinchi inson gavdasini aylana ichiga joylashtiradi. Aylana ichidagi gavdada oyoqlar kerilgan, qo'llar yon tomonga cho'zilgan, aylana markazi kindikka to'g'ri keladi. Agar aylana ichiga oltiburchakni joylashtirsak va ikkita diametr – biri vertikal, biri gorizontal yo'nalishda o'tkazsak, bunda ikkinchi diametr markazida kindik turadi, birinchi diametr esa gavdani teng ikki simmetrik qismga bo'ladi. Qo'l va oyoqlarning uchlari oltiburchakning ikki yuqoridagi va ikki pastdagi burchaklarida joylashadi. Bu yerda gavda o'lchami uchun bosh qismi tanlanib, u gavdaga 8 marta joylashadi (10 a-rasm).




10(a)-rasm. Leonardo da Vinchi. Qadimgilar kvadrati.

Odam anatomiyasini o'rganishda uyg'onish davri rassom-haykaltaroshi Mikelanjelo Buonarroti (1475-1564)ning xizmatlari kattadir. Manbalarda yozilishicha, u anatomiya professori Kalaba bilan o'n ikki yil davomida marhumlar tanasi operastiyalarida ishtirok etadi, anatomiya o'ld ko'plab rasmlar bajaradi (11-rasm).

Shu davr buyuk rassomi Rafael (1483-1520) insonning plastik anatomiyasini chuqur bilganligi bilan ajralib turadi. Agar rassom ijodiga nazar tashlasak, u o'z ijodining butun davri davomida ko'plab anatomik rasmlar bajarganligi ayon bo'ladi. U har bir ishi uchun alohida bosh suyagi, tos suyaklari, qo'l, oyoq panjalari tasvirini chizgan. Shu sababli rassom ishlari mukammal bo'lib, uning nomi asrlar davomida kelmoqda.

Uyg'onish davri san'atkorlaridan nemis rassomi Albrect Dyurer (1472-1528) ham boshqa rassomlarga o'xshab inson tanasi nisbatlari ustida izlandi va erkak kishi gavda nisbatlarini tahlil qildi (13-rasm).




**11-rasm. Mikelanjelo.
Inson tanasi nisbatlari.**

Rassom plastik anatomiyani o'rganish bo'yicha qator nazariy ishlar yozib qoldirgan. Ayniqsa, uning "Inson tanasi nisbatlari haqidagi bilimlar" mavzusidagi ishi diqqatga sazavordir. Mashhur rassom ushbu ishida o'zining kuzatishlari, ilmiy izlanishlari asosida inson gavdasi nisbatlari, uning plastikasi va kostrukstiyasi bo'yicha ilmiy ma'lumotni umumlashtiradi. Uning bu kitobi to'rt qismdan iboratdir.

Birinchi kitobda muallif inson gavdasini qismlarga bo'lishning besh variantini taklif qiladi va bu erda har bir variantda o'lchov birligi sifatida xuddi yunon tasvirlash qonunlaridagidek inson gavdasining biror-bir qismi xizmat qiladi.




12- rasm. A.Dyurer ishlagan rasmlar.



13- rasm. A.Dyurer. Perspektiv rasm chizish.

Ikkinchi kitobda u inson gavdasining o'lchamlarini aniqlash uchun Alberti usuliga asoslanadi. Bu jarayonda inson gavdasini o'lchashda sonli o'lchamga tayanadi. Alberti hisobi bo'yicha bu o'lcham 600 qismga bo'lingan bo'lsa, Dyurer o'zining 1800 qismga bo'lingan shkalasini taklif etadi.


Dyurer to'rtinchi kitobida alohida narsalarning geometrik tahlili prinsipini va chiziqli perspektiva nazariyasi, inson gavdasini kenglikda tasvirlash va rakurs holati vaziyatlarini izohlab beradi.




14-rasm. A.Dyurer Kesik bosh tasviri.

Dyurer inson tanasini proporsional uch qismga bo'ladiki, bu talabalar o'rganishi uchun juda qulaydir. O'tirgan gavgani chizganda yuqori qism katta, oyoqlar kichkina bo'lib qoladi. Agar ushbu sxemaga rioya qilinsa, tasvir savodli chiqadi.

Rassom bosh qismning konstruktiv tuzilishiga katta e'tibor qaratdi. U boshning konstruktiv tuzilishi bo'yicha o'z sxemasini taklif qiladi. Bunda bosh qismining qismlarga bo'linishi shakllar asosida ko'rsatilgan (14-rasm). Keyinchalik bu usuldan aka-uka Dyupuyi, A.Ashbe, D.N.Kardovskiy kabi nazariyotchilar o'z ishlarida foydalandilar (15-16- rasm).



15-rasm. A.Dyurer ishlagan bolalar tasvirlari.



16-rasm. A. Dyurer Inson gavdasi nisbatlari.

Badiiy idrok etishning kompozitsion usullari

Tasviriy san'atni o'rgatish ijodiy yaratuvchanlik jarayonini ham o'z ichiga oladi. Rassom o'zi tasvirlayotgan hodisalarga hech qachon e'tiborsiz qolmaydi. U nafaqat o'z qahramonlarini "ko'radi" va "eshitadi", balki ular bilan birga yashaydi: ularni sevadi yoki yomon ko'radi, ularning ishini ma'qullaydi yoki qoralaydi va shu sababli u yaratgan odamlar timsoli tomoshabinni to'liqlantiradi va uning o'ziga bilinmagan holda unda yangi insoniy sifatlarni hosil qiladi.

Ko'rgazmalarda ko'pincha rassomga kerakli badiiy timsolni yaratish uchun material sifatida xizmat qilgan odamlar portreti osilib turadi. Bular – etyudlar. Biroq rassom jonli naturadan qanchalik foydalanmasin, tasvir yaratish jarayonidagi eng asosiy vosita uning ijodiy tasavvuri bo'lib, u yaratgan badiiy timsol rassom o'z ishini boshlash uchun murojaat etgan haqiqiy timsoldan ancha yorqinroq, ancha mazmundor va insoniy xislatlarga boy bo'ladi.

Keltirilgan misollarda rassomlarning inson ichki dunyosini tasvirlash jarayonida nechog'lik ulkan ishni bajarishlari yaqqol ko'rinib turadi. Rassom insonning ichki dunyosini va sirli kechinmalarini ochib berish uchun kuzatuvchan, bag'rikeng, hayotdan zavq ola biluvchi, qalbi hissiyotlarga to'la shaxs bo'lishi lozim.



17-rasm. I. Repin. Neva prospekti. 1887 y. Asar eskizi.

Tasviriy san'atning talabi shundaki, rassom g'oyani rivojlantiruvchi alohida usullar va vositalarni qo'llab, tomoshabin tushunishi kerak bo'lgan holatni yuzaga chiqarishi lozim. Rasmni qabul qilishga tayyor bo'lmagan tomoshabin unda ko'p narsani ko'rmaydi, uning chuqurligini anglamaydi. San'at namunasidan to'liq zavqlanish uchun tomoshabin badiiy ma'lumotli bo'lishi kerak, ya'ni rassom qo'llagan maxsus vositalardan xabardor bo'lishi zarur.

Rassomlar bajargan qoralamalarda bo'lg'usi asarning u yoki bu qirradi yaqqol namoyon bo'ladi. Ularning izlanishlari to'g'risida qalam, tush, akvarelda bajarilgan ko'p sonli chizgilar guvixlik bera oladi.

I.E.Repinning "Zaporojeliklar", V.I.Surikovning "Boyvuchcha Morozova" rasmlariga chizgilari yaxshi ma'lum. Bu asarlarga mavjud chizgilar, eng avvalo, asosiy massani va alohida guruhlarni tasvirlashi bilan talabalar o'quv ishi va rassomlar ijodiy faoliyatida katta yordam beradi.



18-rasm. I. Repin. Asar eskizi. 1857 y.

Rassom voqelikning tipik va xarakterli tomonlarini ajratib, kuzatishlar va o'zi to'plagan etyud materiali asosida umumlashtirilgan badiiy timsol yaratadi (17-18- rasm).

Atrof-muhitni doimiy kuzatish asosida ko'plab etyudlar bajarish boshlovchi rassomning zarur badiiy sezgirlikka erishishi, o'z ustaligini takomillashtirishi va o'stirishida beqiyos ahamiyatga ega.

Bo'lajak asar uchun eskizlar katta o'rin tutadi. Bunday eskizlar, ba'zan ko'mir bilan bajariladi. Odatda, yakuniy eskiz ustidagi ishdan oldin bajariladi. Albatta, odamlar figurasi umumiy, shartli, detalsiz beriladi. Biroq ayni paytda ularda etarlicha ishonarli harakatlar va fazoda joylashish tartibi bo'lishi kerak.

Kompozitsiyada figuralar taqsimoti rassom tanlagan hayotiy syujetga bog'liq. Syujet eskiz shakllarini, kompozitsiya xususiyatlarini, shuningdek, eng kerakli jihozlarni tanlashga yordam beradi. Dastlabki eskiz chizmalarda syujet markazi, figuralarning guruhlanishi, ba'zan esa harakatni amalga oshirayotgan yoritish xususiyatlari ham hal etiladi. Bunga I.E.Repinning "Volgada burlaklar" rasmiga chizma eskizlari misol bo'la oladi.



19-rasm. Kartina eskizi.

O'quv ishida ko'p sonli eskizlar bajarish asosida syujet yechimini hal qilish mumkin. Bu esa kompozitsiya yaratishning eng zarur bosqichi bo'lib, umumiy syujet bilan birlashgan figuralar kompozitsion yechimi ustida ishlashda qo'l keladi. Bu jarayonda kompozitsiyaning hamma elementlari aloqadorligini ifodalashni unutmaslik kerak. Badiiy timsol ifodaliligiga erishish uchun yorug' fonda qorong'i siluetlar, massalarni taqsimlash ustida ham ishlash kerak. Ular figuralarning plastik joylashuvida, hal qiluvchi chiziqlar yo'nalishini ta'minlashi kerak (19- rasm).

Barcha tasvir vositalari tanlangan syujetni yaxshiroq ifodalash uchun ishlatiladi. Ko'pchilik rus rassomlarini tarbiyalagan P.P.Chistyakov o'z shogirdlariga kompozitsiya ustida ishlash jarayonida kerakli yechimlarni qidirish yo'li bilan mazmun va shaklning to'liq uyg'unlashuviga erishish zarurligini uqtirardi.

Rassom boshlang'ich yechimda tasvirning soddaligi va aniqligi bilan ajralib turuvchi murakkab dramatik hodisani ifodalovchi kompozitsiyaga duch keladi. V.I.Surikovning o'z polotnolariga qalam va akvarel bilan bajarilgan noyob eskizlari mavzuning timsoliy yechimini qidirishda asos bo'lib xizmat qilgan.

Odatda, eskiz yaratilgandan so'ng material yig'ishga o'tiladi. Tayyorlov etyudlarini yig'ishda rassom eskiz asosida naturadan u yoki bu timsolga zarur hayotiy ko'rinish baxsh etuvchi aniq materialni topishi kerak. Etyud materiali ustida ishlashda qalamchizgilarga murojaat etishga to'g'ri keladi. Etyudlar naturaning aniq xarakterli shakllarini qayd etish kerak bo'lgandagina ishlatiladi yoki vaqt chegaralangan, sharoitlar rangli etyud bajarishga imkon bermagan taqdirda ishlatiladi. Ayrim paytlarda etyudlar tasvirlash uchun ko'maklashib, usiz ishlab bo'lmaydigan yordamchi material tarzida qabul qilinadi.

Naturadan chizmalar bajarish ko'pincha asar kompozitsion yechimiga o'zgartirish kiritish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Diqqatni to'plagan rassom natura bilan boyitilgan kartinaga zarur ishonarlilik, xarakterlar ifodaliligini kiritib, alohida elementlar va butun kompozitsiya tuzilishida plastik holatni hosil qilishga erishadi.



20-rasm. Mikelanjelo. Asar qoralamalari.

Rassom ko'ngilda tug'ilgan maqsadni eskizda grafit qalam bilan amalga oshiradi. Keyin esa nisbat, rasmning g'oyaviy maqsadi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan personajlar, predmetlarni joylashtirish yo'llarini izlaydi. Eskiz ustida ishlash davomida rassom yangi detallarni kiritadi yoki aksincha, eskizda asosiy g'oyani yaqqolroq aks ettirishga tirishib, o'zining boshlang'ich maqsadini barcha ikkinchi darajali unsurlardan tozalaydi. Ko'pincha istalgan natija uzoq izlanishlardan so'ng kelgusi rasm eskizlarida ro'yobga chiqariladi (20-21- rasm).



21-rasm. Kartina ustidagi izlanishlar. Rassomlar ishlaridan namunalar.

Pedagogik rasmda ijodiy yondashish.

Yosh rassom shaxsini shakllanishiga o'quv davomida o'rganilgan nazariy maxsus bilimlar bevosita ta'sir qiladi. Ular barchasi yetakchi predmet kompozitsiyasida qo'shiladi, chunki u ijodiy qobiliyatni rivojlanishiga imkoniyatni kengroq beradi. Shu sababli ham rasmga o'rgatishni ijodiy fikrlashni rivojlanishdan ajratib bo'lmaydi.

Kompozitsiya ifodali bo'lishiga fikrni ifodalanish jarayonini to'xtatmaydigan rasm ta'sir qiladi. O'quvchi oldiga turli, tasodifiy olingan buyumlarni qo'ysangiz, u bu narsalarni qogozda yoki boshqa materialda tasvirlashdan avval ularni bir guruxda tasavvur qilishi kerak. Har bir rassomda ijodiy jarayon o'zgacha kechadi, har bir yangi ish ham o'zgacha yondashishni talab qiladi.

Asar yaratishda ijodiy jarayon asosi rassomning obrazlar, timsollar bilan fikrlay olishidir. Haqiqatga asoslangan ijodiy tasavvur natijasida yoki muayyan voqea zahirida paydo bo'lishi yangilik o'ylov – hayol, ichki fikrlash uchun asos bo'lishi mumkin. Muayyan obrazda mavjud bilim va tasavvurni aks ettirish – bu jarayonning eng muhim belgisidir.

Kompozitsiya har bir asarning poydevori, u hayotiy kuzatuvlarni umumlashtirib, ularni rassomning ijodiy maqsadlariga bo'ysundiradi. Obrazli masalani yechish – kompozitsion ishda eng muhimdir. Kompozitsiya tasviriy materialni tashkil etish shakli bo'lib o'quvchida obrazli fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

Kompozitsion o'ylovlar qogozda birinchi chizgi tushmasdan oldin paydo bo'ladi. Shu sababli bir savol tugiladi. Nega har bir professional san'at yo'liga chiqqan kishini rassom eskizlari bunchalik qiziqtiradi, hayajonlantiradi? Balki, ularga qarab biz rassomni hayollarini ko'rishimizdadir, o'sha rassom nimani tasavvur qilganini, uning o'y – hayollarini bilib olishga intilishimizda. Shu sababli eskiz qilish xohishni so'ndirmaslik kerak. Uning ustida ishlash tasavvurni kengaytiradi, obrazli fikrlash qobiliyatni rivojlantiradi.

Kompozitsiya ustida ishlashda suratning muayyan muammolari paydo bo'ladi, ularni obrazli xayoldan kelib chiqqan holda yechish ehtiyoji paydo bo'ladi.

Ba'zida kompozitsiyada o'ylab qo'yilgan ishora, poza, turni aks ettirish urinishlardan cheklanib, natura bilan ishlashga alohida vaqt ajratib o'shanga o'xshash tip va ishoralar qidirish mumkin yoki qatlamlar yechimi kompozitsiyada ishonarli chiqmayapti, demak maxsus rasmlarga e'tibor qaratib, ulardagi qatlanishlarning turli tomonlarini kuzatib turish maqsadga muvofiqdir.

Rasmga o'quv pozitsiyasidan qaralsa, birinchi navbatda u shakl qurilishi qonuniyatlarini o'rganishdir. Bunday rasm har bir o'quvchiga maktab kabi zarur. Ammo rasm san'at predmeti shundaki, rassom qonuniyat ilmiga tayangan holda o'z oldiga muayyan ijodiy muammo qo'ysa va uni ishonarli qilib yechsagina o'z maqsadiga erishadi.

O'quv rasmi kasb ta'limining muhim qismi bo'lib, borliqni real tasvirlash asosidir, undan keyin zamonaviy tasviriy amaliyotda 2 xil rasm mavjud. Ular

maqsadlari bilan farq qiladi. Bu stanokli rasm ijodiyotning alohida doirasi va rasm – asarning tarkibiy qismi sifatida. Rasm barcha tasviriy san’at turlari asosidir.

Tasviriy savodxonlik asoslari borliqni ijodiy o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladi. Rassom tasviriy san’atning qaysi turida ijod qilmasin uning ishi birinchi bosqichda qalam eskizlari va kompozitsion chizmalardan boshlanadi. Fikrni eskizga aylantirish uchun rassomda kenglikni tasavvur qilish qobiliyati o’ta rivoji, rasmga erkin egalik qilish, ijodiy tasavvurning kuchi bo’lishi shart.

Ma’lumki, san’at asari negizida haqiqiy rassomlar ishlari asosida naturani hamma tomonlama bilishi va ichki tasavvurning ulkan kuchi yotadi. Naturani chuqur o’rganishi va ichki tasavvur o’tkirligi o’ylov va uni amalga oshirish o’rtasidagi zanjiridir. Borliqning umumlashirilgan aksi uning bir xil o’xshash tomonlarini birlashtirish, quyuqlashtirish bilan bogliq va rassomning ularga bo’lgan munosabatidan ajratilmaydi.

“Rassom – deb yozardi S. Chistyakov – bu nimanidir biladigan shaxs, u o’zi ko’rgan yangi, takrorlanmas, faqat u hayotda ko’rgan, o’zi anglagan, boshqa rassomlar ungacha aytmagan, u ko’rgandek tushunmagan uningdek anglanmagan narsalarni ayta oladigan shaxsdir”. Xususiyl orqali eng muhimini ongli tanlash obrazlifikrlash qobiliyatni rivojlaydi, bu esa barcha ijodiy faoliyat sohalarida zarurdir. A. Deyneka “Oborona Sevastopolya” kartinasida ziddiyatlardan foydalangan, mavzuning eng muhimini aks etish uchun barcha plastik vositalardan foydalangan. Uning birinchi eskizlari, tayyorlov rasmlari rassom tasavvurining kuchi haqida guvohlik qiladi. Rassom madaniyati uning ongida ma’lumot miqdori bilan emas, balki, yigilgan bilimlarga ijodiy munosabat bilan o’lchanadi. Ayniqsa me’morchilikda bu yaqqol namoyon bo’ladi. Bu yyerda bo’shliq, kenglik tasavvuri rivojlanishi bosh rol o’ynaydi.

Shakl hosil qilish jarayonini fantaziyasiz tasavvur qilish qiyin. Dizayn va amaliy san’at uchun juda muhim. Masalan, antik san’at nodirliklaridan biriga e’tibor bering – E. Verroniyning qizil figurali krateri.

Kraterning pastki yuqori qismidagi naqsh markaziy kompozitsiyani ajoyib qo’shimchasi bo’lib, uni yanada boyitadi. Rasmning o’tkir moxirlik, chizgilar silliqqligi yunon rassomi asarini jaxon ijodiyoti tarixida mashhur xodisa bo’ldi. Kompozitsiya va rasm boglanishiga qaraganda, naqsh va siluetga e’tibor berish kerak. Naqsh va siluet yaratish misolida natura uzgartirish jarayonini kuzatish mumkin.

Hayvonot va o’simlik dunyosi naqsh yaratish uchun boy material beradi. Ayniqsa naqshkorlik amaliy san’atda keng qo’llaniladi

Aytishlaricha, M. Vrubel darsga shastint gullarini keltirib, bir gurux uquvchilarga faraz qilishni, boshqalarga vazifa uchun rasm solishni, kimgadir gilamga naqsh chizishni buyurar edi. Ba’zida o’zi ham doskaga chizib bir gul misolida qancha figuralar yaratish mumkinligini ko’rsatgan.

Har xil nuqtai nazardan qaralsa, kutilmagan natijalarga erishish mumkin.

Masalan ba’zi o’simliklarni yuqoridan chizsa “Rozetka” naqshi paydo bo’ladi. Naqshkorlik bevosita ritm bilan bogliq, birlikni tashkil qiluvchi qism aniq aks

etishga imkon beradi. Butun kompozitsiyani bezaydi. Siluetlik yechimning mohiyati esa, predmet shaklini butunligicha, aks ettirishdir. Siluet ustida ishlashda nima tasodifiy, nima esa xarakterli, doimiy ekanligi ma'lum buladi.

Siluet naturasiz topilishi mumkin, lekin uni bilish shart. Har bir insonga xos bir xolat mavjud. Kuchada ketayotib biz uzoq-uzoqdan tanish ob'ektni yoki odamni tanib olamiz. Demak, faqat eng asosiy xarakterli tomonlari ko'zga tashlanadi. Umumiy kompozitsion yechimda siluet go'zalligi va ifodaliligi o'ta muxim.

Tasvir ishonarli chiqishi uchun ko'zgu va tasavvur darkor. Bu xolatda san'at turi o'z qonunlarini bildiradi. San'atning ba'zi turlarida tasavvur roli haqida yuqorida aytilgan edi. Bu sifat ayniqsa, haykaltaroshlar dizaynlar, grafik, teatr va kino rassomlar ishida zarur. Kompozitsiyaning doimiy asosiy qonuniyatlardan murakkab bo'lmagan predmetlar rasmini chizishdan boshlash ma'qul. Bunda tasviriy tekislikni ritmik tashkil etilishi har bir shaklida belgilanishni unutmaslik kerak, xox u kompozitsiya eskizi bo'lsin yoki naturachi surati, yoki tabiat manzarasi etyudidan qat'iy nazar. Bunday yondashishda ish boshidan katta massalar harakati, varaqning umumiy dinamikasi ko'rinadi. Chiziqli ritmika qadimgi rassomlarning xam ko'zgu tasavvuri kuchli ekanidan dalolat beradi. Har bir asar rasm yoki naturadan chizmalar yoki tasavvur bo'yicha tuzilishi shart. Eng avvalo rasm ustida ish bu kompozitsion muammoni yechish demakdir.

Rasm uchun format hajmi tanlashda ko'zgu tasavvuri yorqinligi katta ahamiyatga ega. Motiv sababni topish, eng ifodali ko'rish nuqtasini belgilash, tasvirlanadigan ob'yekt chegaralarni aniq belgilash shunga kiradi.

Ba'zi o'quvchilar kompozitsion yechim ifodaligiga va o'tkirligiga ta'sir qiladi deb o'ylab boshqa format tanlashadi. Aslida format emas, fikr xayol o'tkir bo'lishi mumkin, masalan oddiy format-kvadratda ifodalangan bo'lsa ham, format oldindan berilgan bo'lishi mumkin (devor hajmi, xolat kitob sahifasi), rassom o'zi tanlashi mumkin. Nima bo'lganda ham bu o'z boshimchalik degani emas. Lekin formatning haqiqiy ahamiyati shunda namoyon bo'ladiki, shu muayyan formatga kiritilgan tasvirga hech nima qo'shib ham bo'lmaydi, hech nima ortiqcha ham emas. Ammo kompozitsion rasm roli faqat muayyan formatga ta'sir o'rnatish emas, varaqni to'g'ri tashkil qilish muxim: rang-tus, ritm, dog, chiziq, harakat hammasini xisobga olish kerak.

Rasm chiza olish-tasavvur qila olish degani. Kompozitsion o'lchovni amalga oshirish uchun maqsadga yo'naltirilgan tasavvur rasm yo'lini oshiradi, rasm esa- rassom mohirligini shakllantiruvchi vosita.

O'quvchilarning tasviriy ko'zgusini rivojlantirganda, yangilikni his qila olish qobiliyatni tarbiyalashda, o'quvchilar diqqatini doimo jalb etish kerak.

Badiiy o'lchovlarning yagona manbai – hayot. Hayot tasavvurlarni qo'shib, ularni badiiy shaklda ifodalay olishni o'rganish kerak. Ishda eng avvalo umumiy fikr o'z ifodasini topish kerak. Butunlikni bilish uchun u qanday elementlardan tarkib topganini bilish kerak. Butunni alohida qismlarga ajratishda, umumiy taasurotni yo'qotmaslikka intilish kerak.

Tasvir butunligiga turli yo'llar bilan erishish mumkin. Butunlikni unutmay, detallar tarkibiy qismlar boglanishini, o'zaro tobe ekanligini ko'zdan

qochirmaslik kerak. Butunlikni ko'ra olish-xarakter tabiatini muammosini o'z ichiga oladi. Xarakterni ifodalay olish, berilgan ob'ektda bosh va ikkinchi darajali masofada turib ishdan olingan tasavvurga e'tibor berish kerak.

J. Mili ta'kidlagandek; "Diqqatni faqat asosiy narsalarga qaraqtish kerak. Tikuvchi paltoni tikkanda, uni manekenga kiydirib o'zi uzoqddan to'xtab kuzatadi. U yaxshi o'tirgan bo'lsa, ya'ni palto bejirim yaxshi chiqqan bo'lsa, tikuvchi detallariga ishlov berishga kirishadi, lekin yomon tikilgan narsaga chiroyli bezaklar va boshqa detallar qadaydigan odam befoyda ish qiladi. Xuddi shunday me'morchilik yodgorliklari ham. Asarning asosiy tomoni ko'zga tashlanishi kerak, uni hech narsa buzmasligi shart." Shunday qilib biz erkin va izchil detallarni kuzatishdan oldin butun asardan taassurot olishimiz kerak. Butunlik hisini tarbiyalash o'qishning birinchi bosqichida boshlanishi kerak.

Xotira asosida rasm chizishni o'rgatishning qisqacha tarixiy tavsifi

Ijodiy amaliyotda naturadan chizish va o'zidan tasavvur qilib chizish orasida aloqa mavjud. Ma'lumki tasviriy qobiliyat o'z xususiyatlariga ega. Ko'p usta rassomlar ishlari naturaga asoslangan. Lekin xotirasiga, tasavvuriga tayanib erkin ishlaydigan rassomlar ham kam emas. Ishning u yoki bu usuli bir vaqtning o'zida badiiy tarbiya xususiyatidir. San'at o'quvchilarda faqat bevosita naturadan chizish malakasini talab qilmaydi. Ko'z xotirasini rivojlantirish asosida avval ko'rganlarni aniq xotiraga muxrlab olish yotadi. Tasviriy xotirani rivojlashning xususiyatlarridan biri – plastik ko'rishga asoslangan badiiy tanlov prinsipi (tamoyili) xizmat qiladi.

Bunday rasm shakllari chuqur tarixga ega. Bizga badiiy ijod endi paydo bo'lgan paytdan taassurotlangan san'at namunalari ma'lum. Bu qadim zamonlardan gorlarda, tosh qoyaliriga o'yib chizilgan rasmlar ming yillar o'tsa ham, inson hayoti va mehnati bilan bogliq rasmlar haligacha bizni o'z yorqinligi, shakl aniqligi va ifodaligi bilan hayratga soladi. Shubhasiz, bu rasmlar ko'rish taassurotlariga tayanib chizilgan. Qadimgi rassomlar o'z asarlarini tasvirlanayotgan ob'ekt xarakterini ifodalash yo'li bilan yaratganlar. Bizga tushunarli bo'lgan kenglik – bo'shliq tushunchasi mavjud emas. Tasvir ba'zida bir birining ustida joylashtirilgan.

Qadimgi Rim olimi va yozuvchisi Pliniy aytganlari biz uchun qiziqish uygotadi. Antik ustalarining ijodiy tasvirlash asosida kuzatuv bo'lgan. Badiiy asar butunligiga diqqatni qaratib, ikkinchi darajali narsalarni bosh asosiy mavzuga bo'ysundirilish haqida yozgan, detallarni mayda – chuyda, iker – chikirlarigacha chizish befoyda ekanini tasdiqlagan.

Tiklanish davri buyuk ustalarining asarlari barchaning diqqat e'tiborini o'ziga qaratadi. Bu davr shuncha san'at asarlarini qoldirganki, u davrning o'quv jarayonini ko'rishga istak paydo bo'lishi tabiiydir, shunday yuqori natijalarga erishishni belgilab bergan ustaxonalarda o'qitish usullarini o'rganishga harakat qilinadi. Renesans rassomlari amaliyotida namunalardan rasm chizish, ko'chirma qilish bilan bir qatorda naturadan kiyingan va yalangoch figuralarni

rasm solish kiradi. Rasmlarning ijodiy funksiyalari kengayadi, turli tayyorlov rasmlari chiziladi.

Tiklanish davri rassomlarida naturadan chizganda uni hamma tomonlama ko'rish hal qiluvchi omil bo'lgan, shu asosida tasavvurda obraz paydo bo'lgan masalan, A. Manteni Franchesko Konzagaga xat yozib Rimdagi zodagon asir turk haqida yozib "Men uni sizga chizib yuboraman, o'zim ko'rgandek ko'rsataman. Men hozir yuborar edim, ammo, men uni hali yaxshilab ko'rolmadim, u ba'zida boshqacha tasavvur qoldiradi, shu sababli men uni xotiramda yaxshiroq saqlab qololmadim"

Demak yuqorida aytilganlardan xulosa chiqarish mumkinki, Mantenya modelni shunchaki beparvo tasvirlash emas, chuqur hamma tomonlama o'rganib xotirada muxirlab olib keyin xotira bo'yicha chizishni muhim deb hisoblagan. Tiklanish davri rassomlari bu usulni tasviriy amaliyotda hal qiluvchi deb bilganlar. Shu bilan birga keyinchalik XVIII – XIX asrlar rassomlari ijodiy amaliyotda shu usuldan foydalanib boshqa usullarni ham qo'llaganlar.

Rossiya ijodiyot Akademiyasida qo'llanilgan o'quv usullari juda unumli bo'lgan. XVIII asr va XIX asr birinchi yarmida Akademiya inson figurasini chuqur o'rganib, uni turli holatlarda tasvirlash malakasini rivojlashni talab qilgan. Masalan A.Ivanov, K.Bryullov va boshqalar inson figurasini xoxlagan burulishi va rakursida chiza olganlar. Rasm chizishni o'rgatishning bunday tizimi inson anatomiyasini chuqur bilishi va amaliyotda qo'llay olishni, murakkab kompozitsion masalalarni yechishda shakl bilan ishlay olishni talab qilardi.

Bob bo'yicha nazorat va mustahkamlash savollari:

1. Pedagogik tasvir bajarish vazifalari.
2. Badiiy asar tushunchasi.
3. Badiiy timsol deganda nimani tushunasiz?
4. Voqelikning tipik va xarakterli tomonlari.
5. O'quv va ijodiy ishda qoralama va chizgilarning o'rni.
6. Pedagogik rasm yaratish bosqichlari.
7. Badiiy asar yaratishda ishlatiladigan materiallar.
8. Badiiy asar tahlili. Qalamtasvirning borliqni haqqoniy tasvirlashga o'rgatishdagi ahamiyati.
9. Pedagogik rasmning maqsad va vazifalari.
10. O'quv va ijodiy ishlarning farqlari.
11. Qalamtasvir tasviriy san'at turlarining asosi sifatida.
12. Qadimgi Misrda rasm chizishga o'rgatish masalalari.
13. Qadimgi Misrda inson tasviri ustidagi izlanishlar.
14. Qadimgi yunon rassomlari ishida plastik yechim.
15. Uyg'onish davri rassomlarining rasm chizish san'atiga qo'shgan hissalari.
16. Leonardo da Vinchining tasviriy san'atni rivojlantirishdagi xizmatlari.
17. Leonardo da Vinchining "Qadimgilar kvadrati" ishi.
18. Mikelanjeloning inson tanasi nisbatlari.
19. Buyuk rassom Rafaelning plastik anatomiya sohasidagi ishlari.
20. A. Dyurer konstruksiyalari.

2-bob. Pedagogik rasm bajarishning asosiy qonun-qoidolari



Ish joyini jihozlash, badiiy materiallar. Yaxlitlik va tus munosabatlari.
Kompozitsion yechim.

Pedagogik rasmda badiiy materiallar

Pedagogik rasm tasvirlashning asosiy qonunlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Qalamtasvir asosiy qoidalarini, chiziqli perspektiva, shakl, o'lcham, nisbat, mutanosiblik, kompozitsiya va boshqalarni pedagog – rassom bilishi shart. Aks holda pedagogik rasmni bajarish va o'quv jarayonida qo'llash o'z samarasini bermaydi. Shuning uchun o'qituvchi qalam tasvir materialidan tortib tasviriy san'atda eng muraqqab bo'lib hisoblangan odam tasvirlashning asosiy qonun qoidalarini bilishi va pedagogik amaliyotda qo'llay olishi maqsadga muvofiqdir. Rasm chizish uchun o'quv xonasi yoki ustaxona bo'lishi lozim. Mazkur badiiy ustaxona yoki o'quv xonasi quyidagi talablarga javob berishi zarur: Xonaning derazalari shimolga qaratilgan bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki quyosh nurlari model tus munosabatlarining yaxlit ko'rinishiga xalaqit beradi. Derazalar quyosh tomoniga qarasa, shishalarni kalka yoki yupqa oq qog'oz bilan yopish zarur. Oq yengil (shoyi, chit) materiallar, parda ham mazkur vazifani bajara oladi.

Qalamtasvir fani uchun mo'ljallangan xonaning devorini yorug' och kul rangda, yuqorisini (potolok) oq rangga bo'yash tavsiya etiladi. Bunda natura predmetlarining soyasi yaxlit ko'rinadi. Kechqurungi rasm mashg'ulotlari uchun umumiy yorug'likdan tashqari maxsus lampa reflektorlar zarur. Kunduzgi dars mashg'ulotlarida naturaga kuchli yorug'lik yondan (chap yoki o'ng tomondan) yoki yuqori tomondan tushirilsa, unda predmetning shakli aniq ko'rinadi. Maxsus elektr reflektorlar turli tushdagi soya-yorug' berish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, rasm darslarini samarali tashkil etish uchun chizishga qo'yiladigan natura uchun maxsus stol bo'lishi kerak. Mazkur stolchalar tirik natura hamda natyurmort qo'yilishiga mo'ljallangan. Tirik natura (odam) uchun stolchanning o'lchami taxminan 1x1 metr, balandligi 0,5 metr bo'lishi kuzda tutiladi. Natyurmortlar uchun esa stolchanning bo'yi 60-70 santimetrni tashkil etadiki, bunda qo'yilgan natura ufq chizig'ining pastiga joylashadi.

Chizuvchiga uzoq muddatli rasm chizish uchun maxsus planshet tayorlash va unga vatman-format o'rnatilishi juda katta ahamiyatga ega. Shu maqsadda mavjud vatman qog'ozining yarim o'lchamidan kichikroq yog'ochdan engil ramka tayyorlanib, ustidan tekis fanera mayda mixlar orqali mustahkamlanadi. Kerak bo'lsa, unga jilvir qog'ozi va qumqog'oz bilan ishlov beriladi. Chizmachilik uchun mo'ljallangan kichik planshet ham maqsadga muvofiq. Tayyorlangan formatning planshetga nisbatan o'lchami 2-3 sm. kattaroq bo'lib, chetlari buklanadi. Buklangan tomonlaridan tashqari qog'ozning ikki qismi mo'yqalam yoki bir parcha paxta yordamida suv bilan ho'llanib chiqiladi. Qog'oz suvni o'ziga tortgandan keyin planshet qog'oz ustiga qo'yiladi. Quruq, buklangan tomonlari duradgorlik (stolyar), PVA elimi bilan surtilib,

planshetning reykalarga yopishtiriladi. Agarda qurigandan so'ng qog'ozning ayrim joylari notekis bo'lib qolsa, ularni suv bilan sal ho'llash kerak va qurishga vaqt berish zarur (15-rasm).

Bundan tashqari, chizuvchida qisqa muddatli rasmlar (nabroska), koralama bajarish uchun albom bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qalamtasvirning asosiy jihozlari qog'oz va grafit qalami hisoblanadi. Rasmning sifatli chiqishi qog'oz to'g'ri tanlanishiga ham bog'liq. Tanlangan qog'ozning navi past bo'lsa, rasmni ko'p vaqt saqlab bo'lmaydi. Qisqa vaqtdan keyin u sarg'ayib, buklanib qoladi. Bunday qog'ozda uzoq muddatli rasm bajarish ham qiyin. U qalam va o'chirg'ich ta'siriga ko'p chidamaydi. Rasm uchun eng yaroqli qog'oz vatman va poluvatmandir.


Grafika qalamlari ("karandash" – eski turkiy so'zdan kelib chiqqan: kara – qora, tas yoki das – tosh) amalda qattiq yoki yumshoq bo'ladi. Qalamning qattiq va yumshoqligi maxsus belgi bilan belgilanadi. Sotuvda turli xil grafik qalamlar mavjud. Masalan, "Konstruktor" "Shkolniy". So'nggi yillarda do'konlarimizda xitoy qalamlarining rang-barang turlari sotuvga chiqarilmoqda. Ularning qattiq yoki yumshoqligi shartli belgi orqali ko'rsatiladi. Misol uchun "Konstruktor" qalamlari – T, "Koxinor" qalamlari – V harflari bilan chiqarilgan. "T" – qattqlik darajasini, "M" – yumshoqlik darajasini belgilaydi. "M", 2 "M", "V", 2 "V", 3 "V" kabilar – rasm bajarishga, ayniqsa uzoq muddatli rasm chizishga qulay. "T", "TM" qalami chizma bajarish uchun yaroqli qalam hisoblanadi. 2 "M", 2 "V" oddiy grafit qalamlari o'quv rasmlarini bajarishda eng ko'p qo'llaniladigan materialdir. Qo'llanmada keltirilgan o'quv rasmlarining ko'pchiligi mazkur qalamlar yordamida chizilgan. Grafit qalamining uchi bilan nozik, ingichka chiziq chizish, uning yon tomoni bilan ajoyib shaklni va turli materialni ifodalaydigan shtrix o'tkazish mumkin. Grafit qalamning kamchiligi – uzoq muddatli akademik rasm bajarishda soya ishlanmalarida yaltiroq tus beradi, "Italyan qalamlarida" esa bunday kamchilik yo'q. Shuning uchun avvalgi (XVII-XIX asr) badiiy maktab va akademiyalarda auditoriya ishlari mazkur qalam bilan bajarilgan. Bunday qalamlar kuydirilgan suyak va o'simlik elimidan tayyorlangan. Afsuski, italyan qalamlari oxirgi yuz yillikda amaliyotdan chiqarilgan.

O'tgan asrning 80-yillarigacha sotuvda "Retush", "Negro" kabi qora qalamlar bor edi. Hozir bunday qalamlar o'rnini Xitoy grafit qalamlari egalladi.



22-rasm. V.A. Serov. Balerina portreti. Qalam.

Professional rassomlar tayyorlash jarayonida rasm chizish uchun material sifatida kuydirilgan ko'mir ham (ugol) ko'p qo'llaniladi. Mazkur material katta o'lchamli qog'ozda moybo'yoqda bajariladigan kartinada chiziqli rasm ishlashda ko'p qo'llaniladi. Ko'mir bilan bajarilgan rasmlarga namuna sifatida XIX asr buyuk rus rassomi V.A.Serovning bir qator portretlarini keltirish mumkin. Maxsus rasm chiziladigan "ko'mir" daraxtlarning turli navlaridan tayyorlanadi. "Ko'mir" bilan ishlash usuli turli xil bo'ladi. Uning chuqur tusli xususiyati rassomlarni juda qiziqtirib kelgan (24-25-26-rasm).



23-rasm. Rasm chizich uchun planshet va moslamalar.

Bundan tashqari, rasm chizishni o'rgatishda qo'llaniladigan boshqa materiallar ham mavjud. Ulardan biri – “sangina”, fransuzcha “sanguine”, lotincha “sanguineus” – “qizil” degan ma'noni bildiradi. Sanginani Italiya rassomlari Uyg'onish davridan beri o'z ijodiy faoliyatlarida qo'llab kelmoqdalar.



24-rasm. Golbeyn. Richard Soutvela portreti. 1533 y. Ko'mir, sangina, Italyan qalami, akvarel, qora tush, pero.




25-rasm. Engr. Nikkolo Paganini portreti. 1819 y. Qalam.

“Bistr” materiali o’z xususiyati bilan sanginaga yaqin, faqat sangina to’q tusli qizil qalam bo’lsa, bistr to’q tusli jigar rang qalamdir.


Yuqoridagi materiallardan tashqari rangli qalamlar, “sous” (ko’mirning suyuq turi), tush, pastel kabi materiallar ham mavjud. Har bir materialning o’ziga xos xususiyati bor. Ularni qo’llash rassomning did va mahoratiga, qolaversa, uning oldiga qo’yilgan o’quv ijodiy vazifaga bog’liq. Rasm chizadigan material tanlangan qog’ozga ham mos kelishi kerak. Chunonchi, qalam bilan ishlash uchun boshqa xil qog’oz kerak bo’lsa, “ko’mir” uchun maxsus tekis bo’lmagan qog’oz yaroqlidir. Shuni ta’kidlash lozimki, barcha materiallar o’ziga xos qiziqarli, boy imkoniyatga ega. Ulardan to’g’ri foydalana bilish bo’lajak pedagog-rassomning muhim vazifasi bo’lib hisoblanadi.




26-rasm. I.Ye. Repin. Eleonori Duze portreti. 1891 y. Ko’mir.



27-rasm. V.A. Serov. R.R.Semyonov – Tyan-Shanskiy portreti. 1905 y.




28-rasm. A.A.Ivanov. Naturachi. 1830 y. Qalam.



29-rasm. Planshet va molbertda chizuvchining o'tirish va chizish xolatlari.



a



b

**30 - a rasm. Chizuvchining o'lchash xolati
b rasm. Tasvirlashning o'lchash usullari.**

Pedagogik rasmda kompozitsion yechim

Tasvirdagi barcha unsurlarning yagona g'oyaga bo'ysundirilishi kompozitsiya deyiladi. Kompozitsiya personajlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash, asar g'oyasini ochish, rassom tasvirlagan vaqtgacha va undan keyin nimalar sodir bo'lishini o'ylab topishga yordam beradi. Tasvirda har bir syujet o'ziga xos kompozitsion yechimni talab qiladi. Biroq tasviriy san'atda shunday usullar mavjudki, ulardan maqsadli muammolar yechimida foydalaniladi:

Bularga quyidagilar kiradi:


- fazoda figuralarni guruhlashning turli usullari;
- yuza tekisligida fazoni tasvirlash;
- personajlarni ruhiy tasvirlash usullari;
- syujetning rangli yechimi;
- yorug'lik va soya berish;
- kontrastlilikni ta'minlash;
- ritmik tuzilish;
- fon, unsurlarni qo'llash;
- kartina o'lchami va formatini tanlash.

Rassom o'z asarida odamlarning nafaqat individual xususiyatlarini, balki ularning tipik belgilarini, ya'ni ushbu sinf odamlari xususiyatlarini o'xshash xarakterlar, o'xshash holatlarda ham topib ifodalaydi.

Bunda rassom odamlarning xususiyatlarini ham, tabiat hodisalari bilan bog'liq xususiyatlarni ham bo'rttirib ko'rsatadi.

Rassom personajlarni joylashtirishning qaysi bir usulini tanlamasin, har bir rasmda personajlar uning diqqat markazida bo'ladi, atrofda esa boshqa voqealar rivojlanadi. Ko'pincha bosh g'oya rasm o'rtasidan sal chetroqda, ikkinchi planda joylashtiriladi.

Kompozitsiyasi to'g'ri hal etilgan rasmda asar yaxlitligi mavjud bo'lib, ayrim narsalarni olib tashlash va qo'shishning iloji yo'q. Rasmda asar g'oyasi bilan bog'lanmagan tasodifiy narsa bo'lishi mumkin emas, ikkinchi darajali unsurlar bosh g'oyaga bo'ysunadi. Bundan tashqari, rassom kompozitsiyaga tomoshabin diqqatini jalb etish tartibini o'rnatadi.



31-rasm. Natyurmort kompozitsiyasi.

Qalamtasvirda kompozitsion echimni hal etish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak.

“Kompozitsiya” – lotincha soʻz boʻlib, “kompositio” – tuzish yoki italyanча “componier” – qurish, tuzish maʼnolarini bildiradi. Uning tom maʼnosi – boʻlaklar birligi, yaxlitlash demakdir (31-rasm).

Bajariladigan har bir ish, qalamtasvir, rangtasvir yoki dekorativ ish boʻlmasin, uning asosida kompozitsion echim yotadi. Demak, chizuvchi bajarayotgan ishning birinchi bosqichi kompozitsiya boʻlib hisoblanadi.

Kartinning yaxlitligi kompozitsiyaning eng asosiy qonuni hisoblanadi. Kompozitsiyadagi barcha elementlar oʻzaro bogʻliq holda bir-birini toʻldiradi, diqqat markazini tashkil etadi. Bunda barcha ikkinchi darajali boʻlaklar unga boʻysunadi va bu yaxlitlikni taʼminlaydi.

Chuqur oʻylangan konstruktiv gʻoya asosida ish koʻrilganligi bajarilgan ishda kompozitsion yaxlitlikni taʼminlaydi. Agar kartina yaxlit idrok etilmas ekan, u turli-tuman boʻlaklarni bir-biriga “yopishtirgan” holda, yaʼni alohida-alohida idrok etiladi va bizning xotiramizda asarning yaxlit obrazi emas, boʻlaklar qoladi.

Mukammal kompozitsiyaga erishish faqatgina uzoq mehnat natijasida yuzaga keladi. Shu darajadagi, chizilgan tasvirdan biror-bir detalni olib tashlash yoki qoʻshish mumkin boʻlmasin. Yaxlitlik nafaqat oʻzaro aloqa va kompozitsiya elementlarining bir-biriga boʻysunishi, balki aloqa va oʻzaro bogʻlanishlarning qonuniy va haqqoniy tarzda ifodalanishi hamdir.

Rassom qalamtasvirda turli vositalar, yaʼni liniya-kontur, shtrix, tushevka hamda nisbatlarga, simmetriya, ritm, turgʻunlik va harakat, shu bilan birga perspektiva qonunlariga rioya qilgan holda tasvirni koʻradi.

Qalamtasvir jarayonida quyidagi kompozitsion qoidalarga rioya qilish diqqat markazida turishi lozim:

1. Odam gavdasi yoki predmetlar tasvirini chizganda inson tanasining plastik tuzilishini hisobga olgan holda simmetriya qoidasiga rioya qilish.

2. Bir-biriga qarama-qarshi tomonlarining oʻzaro mutanosibligi muvozanat hisoblanadi.

3. Kompozitsiya plastik yechimini topishda turg'unlik va harakat qoidasiga rioya qilish.

4. Katta va kichik shakllarning, harakat va tinchlikning, kontrast va o'zaro yaqinlikning hamda yorug'lik va soyaning o'zaro ritmik takrorlanishi.

5. Perspektiva qoidalariga rioya qilish.

6. "Oltin kesim" qoidasiga amal qilish.

7. Naturaga nisbatan chizilgan tasvirning kattalashtirilishi yoki kichraytirilishi, ya'ni masshtab va h.z.

Yuqoridagi qoidalarga rioya qilingan holda san'atdagi turli janrlardagi ishlar – haykaltaroshlik va arxitektura amallari bajariladi va bu jarayonda har bir san'at turi uchun tasvirlash vositalari turlicha bo'lishini esdan chiqarmaslik lozim.





32-rasm. Gipsdan yasalgan byustni chizishda tus munosabatlari.

Rasm chizishning didaktik asoslari

Tasviriy san'at o'qitish usuliyoti zamonaviy pedagogika fani yutuqlariga asoslangan. Mazkur fanning didaktik asoslaridan biri barcha o'quv vazifalarining ma'lum bir ketma-ketlik bilan echilishidir. Shunday qilib, rasm bajarish jarayoni o'zining boshlanishi, davomi va yakuniga ega. Boshqacha aytganda, narsaning o'ziga qarab rasm chizishning bosqichlari mavjud. Bular quyidagilar:

1. Rasm chizish jarayoni joy tanlashdan boshlanadi. Tanlangan joy, ya'ni ko'rish nuqtasi qo'yilgan narsaning shaklini, hajmini, fon bilan bog'liqligini to'la namoyon etishi kerak, yoki uning yaxlitligi ta'minlanishi zarur. Ko'rish nuqtasining to'g'ri tanlanganligi naturaning ancha hajmli, aniq ifodalanishini ta'minlaydi. Ishning birinchi bosqichida chizilayotgan narsani kog'oz tekisligiga kompozitsiya nuqtai nazaridan to'g'ri joylashtirilishi kerak (33 - a rasm).





33-rasm. Gips modelini chizish bosqichlari.

2. Rasm qog'ozga nisbatan juda katta yoki juda kichik, o'ng yoki chap tomonga surilgan bo'lmasligi kerak. Qog'ozni joylashtirish tajribasiga ega bo'lmagan talabalar o'rganish jarayonida tasvir izlovchi moslamadan foydalansalar, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rasmning kompozitsiyasini (lotincha – “ijod etish”, “tuzish”) belgilashda yorug'lik tushishi, predmetlarning rangi, tusi, katta-kichikligi, ufq chizig'iga nisbatan qanday joylashganligi hisobga olinadi. Tajribasiz musavvirning tipik

xatosi shundaki, chizish uchun bir guruh narsani tanlaydi va har bir predmetini alohida chizmoqchi bo'ladi. Tabiiyki, rasm qog'ozga sig'may qolishi mumkin yoki aksincha qog'ozda ko'p bo'sh o'rin qoladi. Shuning uchun rasmning umumiy ko'rinishi engil chiziqlar bilan qog'oz tekisligida belgilanadi: umumiy eni, balandligi, uzoq-yaqinligi. So'ng naturada mavjud narsaning bir-biriga nisbatan o'lcham munosabatlari aniqlanadi. Albatta, ufq chizig'i esdan chiqmasligi kerak (33- b rasm).

Tasvirning umumiy chegaralari qog'oz tekisligida aniqlab qo'yilsa, rassom shu bilan o'ziga aniq kompozitsion vazifa qo'ygan bo'ladi. Shu bosqichdan boshlab kompozitsiya ichida joylashgan predmet shakllarining bir-biriga nisbatlarini topgan holda chizish boshlanadi.

2. Ish jarayonining mazkur bosqichida shakl tuzilishlari aniqlanadi va umumiy soya kiritiladi. Umumiy soyaning ikkinchi bosqichda kiritilishi talabalarga proporsional (predmet shakllari tavsifi) munosabatlarni aniqlashda yordam beradi.

Proporsional munosabat tushunchasi buyumlarning shakllari, tashqi tuzilishi va tus (soya-yorug') munosabatlarini anglatadi va ular orasidagi bog'liqlikni nazarda tutadi.


3. Bu bosqichda shakllarning konstruktiv tuzilishi aniqlanib, hajmini to'liq etkazilishiga erishiladi.

Predmetlar soya-yorug'ligi ustida ishlaganda umumiy tus munosabatlariga katta e'tibor berish kerak. Ish jarayonida rasmni o'quv topshirig'i bilan doimiy ravishda solishtirmoq lozim. Shuning uchun molbert yoki planshet rassomdan uzatilgan qo'l masofasida joylashishi shart. Mazkur bosqichda predmetning barcha qismlari va detallariga alohida e'tibor qaratiladi. Yorug'lik tusi orqali rasmda narsaning fakturasi (materiali) ifodalanadi.


Yakuniy ish bosqichida rasm natura bilan, ayniqsa, planlar ifodalash nuqtai nazaridan taqqoslanadi. Bu bosqichdagi vazifa tasvirlangan barcha detallar va shakllarni yaxlitlikka keltirish – umumlashtirishdir. Shuning uchun dastlab yaqin plandagi narsalarning chiziqlari, soyasi, tus munosabatlari bilan solishtiriladi, kerakli joylari bo'rttiriladi yoki aksincha xiralashtiriladi.

Bajarilgan rasm aniq, jonli, tabiatga yaqinroq ifodalangan bo'lishi uchun rasm chiziqlariga katta e'tibor berilishi kerak. Darhaqiqat, qalasmtasvirda chiziqning roli katta. Nafis chiziq rassomga qator plastik va fazoviy vazifalar yechimini topishga ko'mak beradi.

Shakl, hajm soya-yorug'siz ham bimalol ko'rsatiladi. Misol sifatida rus rassomi V.Serovning ishini qayd etishimiz mumkin. Shuning uchun tasviriy san'atda chiziqni fazoviy chiziq deb nomlaydilar. Ayniqsa, bunday chiziqlar tez muddatli rasmlarda unumli ishlatiladi.




34-rasm. Shkafni chizish ketma – ketligi.



35-rasm. Stolni chizish ketma - ketmaligi.

Chiziqli va konstruktiv tuzilish


Konstruktsiya, predmetning konstruktiv tuzilishi deganda undagi qismlarining o'zaro joylashishi va bir-biri bilan aloqadorligi tushuniladi (36-37 rasm).



36-rasm. Kub va sharning konstruktiv asos tuzilishi.




37-rasm. Natyurmortning konstruktiv – chiziqli rasmi.



38-rasm. Natyurmortning konstruktiv – chiziqli rasmi.

Konstruktsiya tushunchasini o'zlashtirish oddiy geometrik figuralar, geometrik jismlar guruhi, natyurmortlardan boshlab tasviriy san'atda eng murakkab hisoblangan odam figurasi bilan yakunlanadi.

Aslida "konstruktsiya" so'zi "tuzilish" ma'nosini bildiradi. Konstruktsiya tabiatdagi yoki inson qo'li bilan bunyod etilgan barcha predmetlarga bevosita taalluqlidir. Shuni hisobga olib, rassom borliqni idrok etish uchun, eng avvalo, oddiy jismlardan boshlab ularning tuzilish qoida-qonuniyatlarini anglashi zarur. Mazkur ko'nikma narsaning o'ziga qarab rasm chizish jarayonida hosil bo'ladi.




39-40-rasm. Predmetlarning
konstruksiya tuzilishi.

Yaxlitlik va tus munosabatlari

Har bir inson borliqqa nazar tashlaganda eng avvalo, o'ziga yaqin, tushunarli va kerakli narsaga diqqatini qaratadi. Masalan, tikuvchi kiyingan kishiga qaraganda uning kostyumi qanday matodan tikilganligiga e'tiborini qaratga, vrach uning yuz ifodasiga qarab, sog'ligi qay ahvolda ekanligini bilishga qiziqadi. Rassom esa insonga qarab, uning boshqa xususiyatlarini aniqlaydi. Bunda u gavdaning umumiy ko'rinishiga, shakllarga, qora kostyum bilan yuz rangining ochiqqligi o'rtasidagi ziddiyatga, oq bino fonida qora kiyingan gavdaning qarama-qarshiligiga e'tiborini qaratadi. Va shu asosda u o'ziga xarakterli mavzu tanlaydi va umumlashgan obraz yaratadi. Talaba ish boshlashdan oldin, eng avvalo, chizayotgan narsasida uning diqqatini nima tortganligini, uni qanday xususiyatlar hayajonga solganligini, natura nimasi bilan xarakterli ekanligini aniqlab olishi kerak.

Yuqorida aytilganlarni idrok qilgan talaba uni o'zi bajarayotgan tasvirda aniq ifoda etishga intiladi. Bu chizilayotgan narsaga, borliqqa nisbatan ijodiy munosat bilan yondashish bo'ladi. Agar talaba o'zi chizayotgan borliqqa ijodiy yondashmasa, nafaqat ijodiy ishda, balki o'quv ishida ham obraz yaxlitligiga erishishi qiyin. Chizuvchi kishi har bir chizayotgan narsasidan o'ziga xoslikni topa olishi kerak. Tabiatning har bir ko'rinishi, chizuvchida unga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat uyg'otadi. Muallif tugatilgan ishni tomosha qilgan kabi tomoshabin ham yuqorida aytilgan hayajonni o'z boshidan kechirishi kerak. Aksincha, rassomni hayajonga solmagan borliq tasviri tomoshabin diqqatini ham jalb qila olmaydi.

Shu sababli talaba ishda muvaffaqiyatga erishish uchun o'zida borliqqa nisbatan badiiy ko'rish mahoratini rivojlantirishi kerak. Har bir talaba yuqorida aytilgan sifatlarni egallashga intilishi zarur. Biz quyida ushbu sifatlarni qaysi yo'l bilan rivojlantirish kerakligi haqida fikr yuritamiz. Bu jarayonda, eng avvalo, talaba xotira asosida rasm chizish malakasiga ega bo'lishi, rassom uchun kerakli sifatlarni tarbiyalaydigan tasavvurga ega bo'lishi kerak. Tasavvurlar yig'indisi esa topshiriqning ifodali yechimda yakunlanishini ta'minlaydi.



41-rasm. Natyurmort. Tus munosabatlari.

Agar talaba xotirasida u kuzatgan kishidagi kostyumning qaysi andozada tikilganigina qolsa, qog'oz yuzasida modelning to'liq rasmini chiza olmaydi. Demak, uning xayoli faqatgina kostyum bilan bo'lib qolib, naturani yaxlit idrok etmagan. Agar talaba oldida kuzatayotgan kishisini xotira asosida chizish vazifasi tursa, u mumkin qadar nuturaning yaxlit obrazini o'z xotirasiga muhrlashi kerak. Bunga esa modelni yaxlit idrok etish orqaligina erishiladi.

Yaxlit ko'rish inson ko'zi orqali amalga oshiriladi. Ko'z taxminan 180^0 kenglikdagi narsani ko'rish imkoniyatiga ega bo'lgani holda, faqatgina 35^0 oshmagan kenglikdagi narsalarni aniq ko'radi. Qolgan masofadagi narsalarni ko'z doimiy harakatlanishi asosida ko'radi. Bizni qiziqtirgan, ya'ni shu 35^0 kenglikda ko'ringan narsalar asosiy narsa bo'lib, uning yon-atrofidagilar esa ikkinchi darajali narsalardir yoki xuddi qo'shilib ketgandek aniq ko'rinmaydi. Aslida aniqroq ko'ringan joy kompozitsiya markazi bo'lib hisoblanadi. Atrof esa uncha aniq bo'lmagan holda idrok etiladi. Mana shu ko'rish jarayoni asosida kompozitsiya tanlovi amalga oshiriladi.

Ish bajarayotgan vaqtda talaba eng avvalo naturaning qayerda joylashtirilganligiga, yorug'lik manbai qaysi tomondanligiga, yorug'likning tabiiy yoki sun'iyiligiga, uning nurlari naturaning qaysi bo'laklarini yoritayotganligiga, bu bo'laklar yuzasi qaysi rangdaligi yoki qaysi materialdan ishlanganligiga e'tiborni qaratishi kerak. Bu tus munosabatlarini idrok etish

jarayonini engillashtiradi, naturadagi tus birligi va asar yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi (42-rasm).



42-rasm. Natyrmort. Tus munosabatlarining berilishi.

Ish jarayonida yaxlitlikni ta'minlashga o'rganish va tus munosabatlari birligiga erishish uchun ba'zan-ba'zan naturani ko'zni yarim qisgan holda kuzatish tavsiya etiladi. Bu usul ishda yaxlitlikni saqlashda hamda rasmning ifodali chiqishida katta ahamiyatga ega.

Bob bo'yicha nazorat va mustahkamlash savollari:

1. Ish joyini jihozlash deganda nima nazarda tutiladi?
2. Pedagogik rasm chizish nimadan boshlanadi?
3. Tasvirni to'g'ri joylashtirish usullari.
4. Chizish uchun moslama turlari.
5. Qalamtasvir materiallari.
6. Pedagogik rasm chizishning didaktik asoslari
7. Shaklning konstruktiv asoslari tushunchasi.
8. Kartina tekisligi deganda nimani tushunasiz?
9. Pedagogik tasvirda kompozitsion yechim deganda nimani tushunasiz?
10. Pedagogik rasmda tutashuv nuqtalari tushunchasi.
11. Chiziqli va konstruktiv tuzilish qonuniyatlari.
12. Yaxlitlik va tus munosabatlar tushunchasi.
13. Pedagogik rasm chizishda ketma-ketlik.
14. Natyurmort bajarish bosqichlari.
15. Sinf doskasida pedagogik rasm bajarish tushunchasi.

3-bob. Pedagogik rasmda qisqa muddatli ishlarning ahamiyati



Qisqa muddatli rasmning nazariy va amaliy asoslari. Rasmda manzarani chizish. Qisqa muddatli rasmda odamlar guruhini chizish. Xotira asosida rasm chizish. Tasavvur asosida rasm chizish. Qush va hayvonlar qalamtasviri.

Qisqa muddatli rasmlar bajarish

O'quv rasmi badiiy grafika fakultetlarida asosiy fanlardan biridir. Ta'lim maqsadi esa pedagog – rassomni tayyorlash, unga tasvirlashning barcha qonuniyatlarini o'rgatishdan iboratdir. Ta'lim jarayonida olingan bilim va ko'nikmalar o'qituvchiga pedagogik faoliyat bilan bir qatorda tasviriy san'at bo'yicha ijodiy ish olib borishga imkon beradi. Ta'lim asosini naturadan davomli, ko'p seansli rasmlarni bajarish tashkil etadi. Biroq qisqa muddatli rasmlar – narsaning asliga qarab chizishlar, xotira va tasavvur bo'yicha rasmlar ustida ishlash ham muhim. Qator o'quv vazifalarini bajarishda xomaki chizgilar yordamchi rol o'ynab, ayni paytda rasm texnikasini egallashda alohida o'rin tutadi: ular rassom – pedagogning g'oyaviy-badiiy dunyoqarashini ma'lum darajada boyitadi. Qisqa muddatda bajarilgan rasm naturani ifodalashda ixchamlikni, shaklni umumlashtirib berishni talab etadi. Xomaki chizgilar ustidagi ish kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, naturani yaxlit qabul qilish qobiliyatini tarbiyalaydi, texnik ko'nikmalarni egallashga yordam beradi. Xomaki rasmlarni bajarish jarayoni naturadan chizishga asoslansa ham, uning asosida modelni mexanik chizib olish turmaydi. Bu jarayon predmetlar va tabiat hodisalarida timsoliy umumlashtirishni ham o'z ichiga oladi. Turli munosabatlarni, atrof-muhitning tipik xususiyatlarini ifodalash ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Xomaki chizgilar va tez rasm solishlar turli vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Ular davomli rasm uchun yordamchi mashqlar hisoblanib, davomli o'quv ishidan oldin keladi, shuningdek, mustahkamlash va o'rganilgan materialni tekshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qitish jarayonida ham, ustalar amaliyotida ham xomaki rasmlarning ijodiy ish sifatidagi o'rni beqiyosdir.

Xomaki rasmlar va rasm solishlar ishida doimo aniq vazifalarni bajarish nazarda tutiladi. Agar biron bir harakatni timsoliy qayta tiklash kerak bo'lsa (masalan, mehnat jarayonini), rassom harakatdagi naturani faqat bir necha chiziqlar bilan ifodalashi mumkin. Agar modelning ma'lum yoritilishi yoki yorug' – soyali kontrastlarni berish talab etilsa, yumshoq qalam imkoniyatlarini qo'llab, asosiy tus munosabatlariga diqqatni kuchaytirish kerak bo'ladi. Bu jarayonda oldindan qog'ozni vertikal yoki gorizontal joylashtirishni va naturaga nisbatan qanday o'lchamda rasm solishni hal qilish kerak.

Odatda, xomaki rasmlar katta bo'lmagan o'lchamda qilinadi. Chizgilarni, ulardan bir nechtasini bir qog'ozda joylashtirish mumkin. Hatto juda kam vositali, bir necha chiziqlar bilan bajarilgan xomaki rasm ham kompozitsiya ustida ishlashda yordamchi material bo'lib xizmat qilishi mumkin. Uni hech qanday surat almashtira olmaydi, chunki u naturadagi eng asosiy, eng xarakterli

xususiyatlarni o'zida aks ettirmaydi. Rassom xomaki rasmda ko'rilgandagi taassurotni ifodalagandan so'ng, u rassomning ko'z xotirasida mustahkam qoladi.

Reja bo'yicha xomaki chizgilarga ma'lum o'rin ajratilgan. Bunday xomaki rasmlar yaratishning asosiy vazifasi turli predmetlar va naturaning xarakterli shakllarini ifodalashda bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Rassom xomaki rasmning qator qonuniyatlarini o'rganib, tez rasm tasviriy vositalarini qo'llab, o'zining naturaga bo'lgan munosabatini aks ettirishga harakat qiladi. Xomaki rasmda timsoliy badiiy umumlashtirish naturani o'rganish vositasi ham bo'ladi. Shuning uchun xomaki rasm san'atida o'rgatish va yaratish jarayonlari yaqindan bog'langan. Rassom chiziqlarning tasviriy imkoniyatlarini egallab, ularni predmet va tabiat hodisalarini timsoliy tasvirlash uchun qo'llashi mumkin.

Xoh davomli rasm bo'lsin, xoh qisqa muddatli rasm bo'lsin, o'quvchi o'z diqqatini naturani hajmli fazoviy qabul qilishga yo'naltirishi kerak. Predmetlarning hajmli shakllarini, ularning konstruktsiya tuzilishini tushunmay, u yoki bu shaklni savodli chizish mumkin emas. Odamning plastik anatomiyasi, gavdasining konstruktiv asosini o'rganib, bu bilimlarni rasm ustida ishlashda qo'llash kerak. Shakl to'g'risida yaxlit tasavvurga ega bo'lmay turib, uning ko'rinib turuvchi qismlarini to'g'ri tasvirlashga erishish qiyin. Binobarin, odam boshini uch qismga burilgan holda tasvirlashda – quloqni to'g'ri joylashtirish uchun chizuvchi ko'ziga ko'rinmaydigan boshqa quloqning joylashish o'rnini tasavvur eta olish zarur.

Talaba rasm chizishda asosiy tus munosabatlarini berib, shu bilan birga naturani yuzaki ko'rishi kerak emas. Davomli o'quv rasmlari ustida ishlash davomida talabalar “uch o'lchamlilik”, “hajm”, “yorug'lik – soya”, “tus”, “chiziq”, “proporstsia” kabi tushunchalarni chuqur o'rganish, shuningdek, rasmni izchil bajarish uslubini egallash imkoniga ega bo'ladilar. Bu bilimlarning hammasini qisqa muddatli rasm ustida ishlashda ham qo'llash zarur. Xomaki rasmda bularning hammasi tuplangan holda keladi hamda rasm chizuvchidan diqqatni bir joyga to'plashni talab qiladi. Bu, tabiiyki, talabalar ishini murakkablashtiradi.

O'quvchi asta-sekin tasvirlanayotgan shaklni ixcham va ifodali beruvchi fazoviy chiziqlarni aniqlab oladi. Bu chiziqlar tajribali rassom qo'lida yoritish va shakl xarakteriga qarab ish davomida o'zgaradi: bir joyda kuchayadi, boshqa joyda kuchsizlanadi, ba'zan yaqinlashadi, ba'zan uzoqlashadi yoki ishlatiluvchi materialning bor kuchida namoyon bo'ladi.

Shtrix chizig'ining turlicha bo'lishini ta'minlash xomaki rasmlarda hajmli shakllarni ifodali tasvirlashning asosiy vositalaridan biridir. U plastik va fazoviy masalalarni echishga imkon beradi.

Xomaki rasmning xususiyati chiziqning dalilliligi va ifodaliligini talab etadi. Ortiqcha mehnat sarf qilingan va bo'sh chiziq xomaki rasmni quruq, jonsiz tasvirga aylantiradi. Talabalar rasmda chiziq shaklini o'rganish bo'yicha ishning murakkab ekanligini his etishlari, predmetlarning tashqi chiziqlariga ortiqcha e'tibor qaratmaslik kerakligini bilishlari kerak.

Rasmda chiziq hajmni ifodalash vositasi bo'lib, unga to'liq rasm bog'liq bo'ladi. P.P.Chistyakov: "Kimki shaklni ko'rmasa, chiziqlarni to'g'ri chiza olmaydi" deya o'rgatar edi.

Ishlatilayotgan materialning qog'oz yuzasiga ta'sir kuchiga bog'liq bo'lgan ifodali shtrix – chiziq uning plastik xarakterini aniqlab, shakl bo'yicha borishi kerak. Xomaki rasmlarda yorug'lik – soya munosabatlarini juda kam, faqatgina shaklning eng asosiy joylarida berish mumkin.

Agar xomaki rasmda tasvirlanayotgan natura tus munosabatlarini yoki siluetini berish talab etilsa, asosiy ish tasvirning ba'zi joylarini shtrixlash yordamida bajariladi. Tasvirda tus yechimini hal qilishda u yoki bu joyning absolyut tus kuchini ko'rsatishga intilmaslik lozim. Yoritilgan yuzalarning soyaga nisbatan olinganlariga qarab nisbatini aniq tasvirlash lozim. Bundan tashqari, xomaki rasmlar, odatda, fonsiz beriladi. Bu tasvirga qandaydir shartlilik kiritadi, shuning uchun ular naturada bo'lgan tus munosabatlarining aniq berilishiga xalaqit qila olmaydi.

Uzoq muddatli rasmda tusni aniqlash ustidagi ish asta-sekin olib borilsa, xomaki rasm asosiy tus aksentlarini tez aniqlashni talab etadi. Tus yechimi tanlangan qog'ozning turli navlari, devor gul qog'ozlarining teskari tomonida sinab ko'riladi. Qog'ozning tanlanishi, odatda, ishlatilayotgan material xususiyatlariga bog'liq. Rasm uchun eng keng tarqalgan material grafit qalamidir. Xomaki rasmlar va chizgilarda ishni qalamning shartli "M" turidan boshlash va yuqori yumshoq qalamlarni ishlatish qulayroq. Qattiq grafit qalam ko'pincha mayda detallarni tasvirlashda ishlatiladi.

Xomaki rasmning qisqa muddatliligi tufayli o'chirg'ich ko'p ishlatilmaydi. Xomaki rasmlar uchun "Retush" №1,2 yaxshi material hisoblanib, tuslarni ifodalash uchun qulay, yaltiramaydi va deyarli barcha qog'oz navlarida ishlatilishi mumkin. Rasm uchun o'ziga xos material kuydirilgan yog'och ko'miri bo'lib, ishlatishga qulaydir. U yirik yuzalarni umumiy hal etish, shuningdek, predmet shakli ancha mayda joylarni tasvirlashga imkon beradi. Ko'mir turli yog'och jinslardan tayyorlanuvchi ingichka tayoqchalardan iborat. Ko'mirni o'chirish va ortiqcha qorong'i joylarini rasmda susaytirish uchun oq non ushog'i ishlatiladi. Oddiy o'chirg'ich esa shtrixlangan yuzaning ifloslanishiga olib keladi. Ko'mir bilan ishlash uchun dag'al yuzali qog'oz navlarini qo'llash yaxshiroq. Bu holda kulrang o'rash qog'ozi va devor gul qog'ozining teskari tomonidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yorug' joylarni bajarish uchun ba'zan bo'r ham ishlatiladi. Uni o'ta ehtiyotkorlik bilan faqatgina eng yoritilgan joylarda ishlatish mumkin. Bo'rdan ortiqcha foydalanish kerak emas, chunki bu tajribasiz rassom ishida tashqi ta'sirlarning ko'payishiga, rasm savodliligining pasayishiga olib keladi.

Vositlardan biri yog'sizlantirilgan, biroz suv qo'shib suyultirilgan sigir sutidir. Rasm gorizontaal qo'yilib, purkagich yordamida uning ustiga fiksativ sepiladi. Mustahkamlovchi sifatida elim yoki jelatinning juda kuchsiz eritmalarini ham tavsiya etish mumkin.

Ko'mirning barcha afzalliklariga qaramay, undan ko'p foydalanish yaramaydi. Chunki uning maydalanib ketishi, hosil qilinuvchi shtrix

fakturasining alohidaligi ma'lum darajada u yoki bu shaklni tasvirlashda aniqlikni talab etuvchi sof o'quv vazifalaridan diqqatni olib qochadi.

Xomaki rasmda sangina ancha kam ishlatiladi. Uni rasmda ma'lum tajribaga ega bo'lgandagina qo'llash mumkin. Sangina – jigarrang, moyli bo'r. Undan “o'sib boruvchi”dek foydalanadilar yoki shtrix vositasi sifatida foydalanadilar.

Davomli rasmda ham, xomaki rasmda ham ko'pincha sous ishlatiladi. Sous bilan ishni ikki usulda olib borish mumkin – quruq va ho'l. Birinchi holda qog'ozda retusha bilan ishlanadi, ikkinchisida suvda eritilib, mo'yqalam bilan bajariladi. Mayin mo'yqalam yordamida sous bilan juda nafis xomaki chizgilarni bajarish mumkin.

Xomaki rasmlarda tush ham ishlatiladi. Tush bilan rasm yumshoq mo'yqalam orqali suv qo'shib yoki qo'shmasdan bajariladi. Keyingi holda tush mo'yqalamga juda kam olinadi, chunki mo'yqalam deyarli quruq qoladi va ish, asosan, shtrixlar bilan olib boriladi. Tush bilan ishlashda pero ham keng ishlatiladi. U ayniqsa, o'lchamlari bo'yicha mayda xomaki chizgilarda ko'p qo'llaniladi. Rangli qalamlarni ham ishlatish mumkin: bir rangli yoki ikki rangli (masalan, jigar rang va qora).

Xomaki rasmlar ustida ishlashda akvarelning imkoniyatlari keng. Xomaki rasmni etyudga aylantirmay, ikki-uch yoki bir rangni qo'llab va shaklni umumlashtirish usulini tus bo'yicha kontrast tarzda olib borib, juda ifodali yechimlarga erishish mumkin.

Qisqa muddatda bajarilgan rasmlarda ko'plab materiallar va bajarishning texnik usullari qo'llanishi mumkin. Biroq ularni tanlash uchun, eng avvalo, badiiy maqsad, ijodiy vazifa, tasvirlanayotgan ob'ekt xususiyatlari va rasm chizuvchining shaxsiy tajribasi bo'lishi kerak.

Atrofimizdagi turmush, predmetlar rasmini chizish eng sodda va o'rganishning boshlang'ich davriga to'g'ri keladi. Mustaqil ishlar qamrovida turli narsalar chizish ob'ekti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ammo ish avvalida shaklan ancha sodda predmetlarni tanlash yaxshiroq. Predmet shakli va nisbatlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun turli holatlarda va turli ko'rish nuqtalaridan chizish foydalidir. Bu borada mazmunan umumlashgan predmetlar guruhidan iborat xomaki rasmlarni chizish yaxshi samara beradi.

Me'moriy yodgorliklar, muzeylar va boshqa tarixiy joylarga borganda, davomli rasm bajarish imkoni bo'lmaganda albomda rasmlar bajarish juda qulaydir. Syujet kompozitsiyasi ustida ishlayotgan rassomga maqsadga javob beruvchi motivni topish uchun mavzuga oid tez, ixcham xomaki rasmlar bajarishga to'g'ri keladi. Xonaning xarakterli ichki ko'rinishini timsoliy qabul qilish, uning odamlar bilan organik bog'lanishi ba'zan rassomning ijodiy tasavvuriga turtki bo'ladi va uni ma'lum syujet sari chorlaydi.



43- rasm.



44-rasm. Odam bosh qismi qalamtasviri.

Tasviriy san'at o'qituvchisi tayyorgarligida uzoq muddatli, akademik topshiriqlar chizish bilan bir qatorda qisqa muddatli rasmlar (nabroska, tezkor rasm) bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqa muddatli rasmlarning vazifasi imkon boricha qisqa vaqt ichida rasmdagi tipik holat va xarakterlarni ajratib ifodalashdan iborat. Bunday rasmlar katta akademik topshiriqni bajarishda ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, eng qiziqarli ko'rish nuqtasini tanlashda, tus nisbatini aniqlashda uning ahamiyati kattadir.

Qoralama orqali rassom hayotdagi rang-barang lavhalarni o'z albomiga tushiradi. Shu bilan rassomda obrazli fikrlash xususiyati shakllanadi. To'plangan nabroska, eskiz (qoralama)lar kelajakda bitiruv ishini yaratishda katta yordam beradi (44 - rasm).

Qisqa muddatli rasmlar, ayniqsa, oliy badiiy pedagogik ta'limda muhimdir. Chunki rasm o'qituvchisining sinf doskasida tez va sifatli rasm bajarishi uning professional mahoratidan dalolatdir.


Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tayyorgarligida xotira va tasavvur asosida rasm chizish doimiy o'rin egallashi kerak. Xususan, sirtqi bo'limda o'qiyotgan talaba uchun bu muhimdir. O'rta maktab tasviriy san'at dasturida mavzuli rasmlar bajarishga katta ahamiyat beriladi. Xotira va tasavvur asosida rasm chiza olmagan o'qituvchi, rassom pedagogik va ijodiy faoliyatda ma'lum natijaga erishishi qiyin. Xotiradan rasm chizish qobiliyatiga ko'pchilik ega emas. Bunday fazilatni tarbiyalamoq lozim.

Manzarani tasvirlash usullari

Manzara chizish shahar yoki qishloqning turli motivlarini, xomaki manzaralarini va uning alohida elementlarini (masalan, daraxtlar, uylar, er, bulutlar va h.k.) bilishni taqozo etadi.

Tabiat tasviriga oid qisqa muddatli rasmlarda ham nisbatlarni topa olish, chiziqli va havo perspektivasi qoidalarini bilish, masshtablarni aniqlash bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish lozim.


Manzaraning alohida elementlarini chizish ustida ishlash jarayoni tabiatni to'la idrok etish bilan bog'liq. Masalan, daraxt, uning konstruktiv bog'lanishini tahlil qilib, tananing shoxlar va barglar joylashgan o'rinlarini aniqlash kerak. Har bir daraxt – archa, majnuntol, oq qayin – o'z xarakteri, o'z shakliga ega.



45-rasm. Daraxt qalam tasviri.

Rassom bir qarashdayoq tabiatdagi barcha nozik va qiziq motivlarni anglab oladi. Etyudlarga chiqish vaqtida bloknot va qalam olib, go'zal shakli bilan o'zini maftun qilgan ob'ektdagi barcha unsurlarni tasvirlashga tushadi. Ular orasidagi munosabatlar: yorug' – soya, rang uyg'unligi, plastikasi va shakl yechimlarining o'zaro bog'liqligi uning diqqat markazida bo'ladi (46 - rasm).

Ba'zi hollarda tabiatning ma'lum holatini aks ettirishni maqsad qilib olish foydalidir. Bugungi kunimizni tavsiflovchi va xomaki rasmda aks ettirilgan manzara elementi keyinchalik rassomchilik yoki grafikada timsoliy kompozitsion yechimga zamin yaratadi.



46-rasm. Manzara. Tush, pero.

Mashhur manzara ustalari xomaki rasmlarni katta asarlar uchun boshlang'ich material sifatida qo'llashgan.

Me'moriy yodgorliklar va ularning uslub xususiyatlarini aks ettiruvchi alohida dekorativ elementlarni chizish barchada katta qiziqish uyg'otadi. Kran va boshqa texnika vositalari tasvirlangan qurilish rasmlari perspektiva to'g'risidagi bilimlarni mustahkamlaydi, yirik shakl nisbatlari va masshtabli nisbatlarni aniqlashda ko'zni mashq qildiradi (47- rasm).

Agar shahar motivi rasmiga odamlar guruhi kiritilgan bo'lsa, naturani umumlashtirib ko'rishga harakat qilish kerak. Qomatlarni tasvirlab, asosiy to'da xarakteri, uning siluetini chetda nazardan qoldirmaslik kerak.

Ko'cha harakatga to'la. Uni tasvirlash uchun u yoki bu hayot daqiqasini umumlashtirib qayd etishga sharoit yaratuvchi xomaki rasm imkoniyatlaridan foydalanish lozim. Bunda har safar ma'lum vazifani qo'yish talab qilinadi.



47-rasm. Tabiat manzarasi qalam tasviri.



48-rasm. Qurigan daraxt qalam chizgisi.



49-rasm. Daraxtlar qalam tasviri.



50 - rasm. Daraxtlar qalam tasviri.



51-rasm. Buta tasviri.


Odamlar guruhini tasvirlash

Bunday topshiriqlar talabalar uchun bir oz qiyinchilik tug'diradi. Bu jarayonda xarakterlari bo'yicha bir necha turli figuralarni taqqoslash nazarda tutiladi. Quyilgan maqsadda perspektiva va masshtab moslashuvini aniqlash, tasvirlanuvchining plastik birligini saqlab qolish va nihoyat, odamlar guruhining syujetli aloqadorligini ta'minlash talab etiladi. Mana shu vazifalar majmui bunday chizishlarda ma'lum kompozitsion ko'nikmalarni o'stirish uchun xizmat qiladi. Hayotiy kuzatmalar zaxirasini yaratib, janr kompozitsiyasini yaratishda boshlang'ich asos bo'la oladi. Dastlab ancha aniq, sodda holatdagi ikki qomatni chizish qulayroq. Ulardan biri tik turibdi, ikkinchisi yonida o'tiribdi, ikkalasi bir mashg'ulot bilan mashg'ul. Navbatdagi topshiriqlar asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Bunda e'tiborni naturaning hayotiy vositalar asosida ifodalanishiga qaratish kerak.


Bir necha figuradan iborat yoki mashg'ulot bilan band guruhni chizishda butun guruhni yaxlit qabul qilish zarur. Bu tasvirlar odamlar guruhini birlashtiruvchi syujet motivini ifodalashga imkon beradi.

Mashhur ustalar ishlarida tasvirlangan sahnalar mohiyati figuralar aloqadorligini anglash qisqa muddatli rasmda naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.


Agar murakkab odamlar guruhini tasvirlash talab etilsa, ular bir- biridan ma'lum uzoqlikda ichkariga qarab joylashganda, figuralarning perspektiv qisqarishini hisobga olish zarur. Tus yechimini esa naturaning fazoviy holatini aniqlashga yo'naltirish kerak (54-57- rasm).



52-rasm. Qisqa muddatli rasmlar.



53-54-rasmlar. Qisqa muddatli rasmlar.



55-56-57 rasmlar. Qisqa muddatli rasmlar.

Xotiradan rasm chizish oldin chizilgan rasmni yoki ko'rganni imkoni boricha qayta qog'ozda takrorlash hisoblanadi. Ko'rish xotirasini rivojlantirish uchun maxsus psixologik test va topshiriqlar mavjud. Rasmda eng oddiy yo'l – auditoriyada chizilgan akademik topshiriqni xotiradan qisqa vaqtda qayta chizish, takrorlashdir. Xotiradan chizilgan model va akademik rasm rassomning ko'z oldida bo'lmasligi shart. Bu ishni oddiy geometrik jismlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Topshiriqlar sekin-asta murakkablashtirib borilishi kerak.

Xotira bo'yicha o'quv mashqlarini juda yaxshi tanish bo'lgan oddiy predmetlarni chizishdan boshlash kerak. Bu turli alohida yoki ma'lum kombinastiyalarda olingan geometrik figuralar, turmush predmetlari, mebel bo'lishi mumkin. Agar o'quvchi o'rganishning boshlang'ich qismidan o'tgan bo'lsa, xotira bo'yicha tasvirlash predmeti qushlar va turli hayvonlar tulum bo'lishi mumkin. So'ng esa odam figurasini xomaki chizishga o'tish mumkin.

Xotira bo'yicha xomaki chizishlar ustida ishlab, tashqi ta'sirlardan saqlanib, shaklning chuqur tahliliga asosiy e'tiborni qaratish kerak. Shunday mashqlardan biri davomli rasmda naturadan bajarilganlarni xotira bo'yicha xomaki chizishdir. Bu paytda model va rasm ko'z oldida bo'lmasligi kerak. Xomaki rasmni bajargach, uni natura bilan solishtirish va xatolarni aniqlash zarur. Xotira bo'yicha ishlashda naturani bajarilgan oldingi rasimga mo'ljal olish kerak emas, chunki bu jarayondagi asosiy vazifa model to'g'risida o'z tasavvurini ifodalashdan iboratdir.

Keyingi mashq biron-bir predmetni bevosita xotira bo'yicha chizishdan iborat bo'lishi kerak. Bunda o'zining birinchi taassuroti va oldindan kuzatishlariga asoslanish muhim. Tasvirlash uchun tanlangan predmetni kuzatib, uning asosiy konstruktiv tuzilishi, shakl xususiyatini aniqlash zarur. So'ng predmetni olib qo'yish va rasm chizishga o'tish kerak.

P.P.Chistyakov yosh rassomlarga uyda kun bo'yi naturada ko'rganlarini xotira bo'yicha chizishni tavsiya qilardi. Bundan tashqari, Chistyakov o'quvchilariga modelni qisqa vaqt ichida ma'lum holatda qo'yib, uni o'rganishga vaqt ajratib, xotira bo'yicha chizishni taklif qilardi. D.N.Kardovskiy shogirdlarining xotirlashicha, bu mashhur rassom – pedagog ko'z xotirasini rivojlantirishga katta e'tibor bergan va shu maqsadda turli maxsus topshiriqlar ishlab chiqqan. Uning shogirdlari davomli rasm ustidagi ish jarayonida naturadan va xotira bo'yicha ko'p sonli xomaki rasmlarni bajarishgan.

Xotira bo'yicha chizish ko'p shakllarda bo'lishi mumkin. Masalan, san'at asarlarining sxematik rasmi, xoh u dastgohli kompozitsiya bo'lsin, xoh haykaltaroshlik yoki xalq amaliy san'ati namunasi bo'lsin, juda foydalidir. Bunday mashhur shaklni plastik ifodalash sezgirlikni rivojlantiradi, o'quvchilarning kuzatuvchanligini oshiradi.

Xotira bo'yicha tizimli chizishlar predmetni umumiy ko'rish orqali qabul qilishga o'rgatadi. Naturadan asosiy narsani tanlab olish malakasini tarbiyalaydi. Xotira bo'yicha chizish predmetga har tomonlama jiddiy qarashga majbur qiladi. Shuning uchun rasimga o'rgatishning boshidan natura bilan ishlash, ayni paytda unga qaramay ishlash tavsiya etiladi, ya'ni xotira bo'yicha ish ko'rish talab

qilinadi. Ko'pincha bu ishda qisqa muddatli rasm ishlatilishi maqsadga muvofiqdir.

Rangtasvir yoki grafik ishlarda ijodiy muvaffaqiyatlar yaxshi rivojlangan ko'z xotirasi tufayli predmetlarning eng xarakterli va ahamiyatli tomonlarini eslab qolish bilan bog'liq buladi.

Xotira bo'yicha chizishga tasviriy san'atning mashhur ustalari K.P.Bryullov, I.K.Ayvazovskiy, I.E.Repin, M.A.Vrubel, I.I.Levitan va boshqalar katta ahamiyat berganlar. N.N.Ge yozganidek: "Jonli shaklni tasvirlashning eng yaxshi usuli har kuni xotira bo'yicha yoddan chizishdir. Qarshingizda uchraganlarni tasvirlang, xoh yorug'lik, xoh shakl, xoh sahna bo'lsin – sizning e'tiboringizni jalb etgan har qanday narsani chizing. So'ng esa odam qomatini xomaki chizishga o'ting".


Xomaki rasm bajarish jarayonida rassomni qiziqtiruvchi predmet yoki hodisa muhim ahamiyat kasb etadi. U eng kuchli, timsolli bo'lib, ko'z xotirasiga bog'liq holda ko'rilgan narsadagi eng xarakterli tomonlarni qayd etishi kerak. San'atda ko'z xotirasi katta rol o'ynaydi. Rassom o'z ko'z xotirasini doimo rivojlantirishi zarur.

Tasavvurdan rasm chizish ham ko'rish xotirasiga asoslangan bo'lib, bunda rassom o'z ongida turli narsalarning ko'rinishi va holatini qayta yaratishi lozim. Tasavvurdan rasm chizish qobiliyatini rivojlantirish yo'li qator rasmlardan mashq bajarish bo'lib hisoblanadi. Maqsad esa naturani o'rganib, tasavvurdan turli ko'rish nuqtalari orqali, turli holatlarda mazkur naturani takroran tasvirlashdir.

Oldimizga qo'yilgan maqsadga bog'liq holda qalamchizgilarni bajarish muddati – 2-10 minut bo'lishi mumkin.

Uzoq muddatli rasm chizishdan oldin predmetlar shakli, ularning bir-biriga nisbatan o'zaro munosabati va fazodagi vaziyatini o'rganish uchun qisqa muddatli qalamtasvirlardan foydalaniladi.

Qalamchizgilar borliqni haqqoniy tasvirlash, chizish uchun qulay bo'lgan nuqtani topishda juda ham muhimdir



58- rasm. Gipsdan yasalgan vazani tasavvur asosida turli holatlarda chizish.

Qalamchizgilar nafaqat uzoq muddatli rasmlar chizish uchun yordamchi material, balki mustaqil maqsadni amalga oshirishni ham ko'zlashi mumkin. Qalamchizgilar ustida ishlash chizuvchida kuzatuvchanlik, naturadagi eng asosiy narsani ilgab olish xamda naturadagi shakl va eng xarakterli xususiyatlarni tez ilg'ab olish malakalarini o'stiradi.

Qalamchizgilar, odatda, unga katta bo'lmagan oddiy yoki rangli qog'ozda oddiy grafit qalam, ayrim hollarda tush yoki akvarelda bajariladi. Tez bajariladigan qalamchizgida (ayniqsa, ishni tush bilan bajarganda) ehtiyotkorlik bilan ishlash talab etiladi. Buning sababi bajarilgan ishni tuzatish qiyinligidadir.

Siz qo'lga qalamni oldingiz. Oldingizda qandaydir mashinaning tasvirini chizish vazifasi turibdi. Agar siz oldin bu mashinani ko'rmagan bo'lsangiz, tasviringiz beo'xshov chiqishi mumkin. Shu sababli naturani, ya'ni chizmoqchi bo'lgan mashinangizni kuzating va quyidagilarga e'tibor bering. Mashinaning umumiy ko'rinishi qanday, kengligi, balandligining uzunligiga nisbati qanday, mashina g'ildiraklari qayerda joylashgan, mashinaning ustki qismi, old ko'rinishlari qanday?



59-rasm. Qushni o'ziga qarab, hotira asosida va tasavvur orqali chizish.



60-rasm. Gipsdan yasalgan boshni chizish bosqichlari (E. Ignat'ev metodi).

Shu sababli bu vazifani bajarishdan oldin ko'chaga chiqib, mashinani kuzating va uni naturadan bir emas, besh-o'n marta chizing. Chizgan vaqtda nafaqat oldindan, balki yon va orqa tomon ko'rinishlarini ham tasvirlang. Sizning xotirangizda bu tasvirlar uzoq vaqt saqlanib qoladi va siz hech qiynalmay xohlagan vaqtda mashina tasvirini turlicha ko'rinish va burilishlarda chiza olasiz. Shuni esda saqlash lozimki, borliqni to'g'ri idrok etish uni chiroyli tasvirlash uchun imkon yaratadi.

Buyuk rassom Mikelanjeloning biografi A.Kondivi yozishicha, u xotirasi kuchli kishi bo'lgan. "Mikelanjelo – hayron qolarli xotiraga ega bo'lib, u chizgan minglab figuralar bir-biriga o'xshamas edi, bir-birini hech qachon takrorlamas edi..."



61- rasm. Gipsdan yasalgan boshni chizish bosqichlari (E. Ignat'ev metodi).

Rasm chizishga o'rgatish jarayonida inson gavdasini tasvirlash muhim o'rin tutadi. Bu turdagi ishlarni bajarish talabdan ma'lum tayyorgarlikni, plastik anatomiya va perspektiva qonunlarini bilishni talab etadi. Ko'p hollarda talaba inson terisi ostidagi anatomik tuzilishni bilmasdan turib, shaklda yorug'lik – soyalarni ishlaydi, naturaning tashqi ko'rinishiga e'tiborni qaratadi. Natijada inson gavdasining konstruktiv tuzilishi, uning harakatlanish mexanizmini tasvirlashda xatolikka yo'l qo'yadi. Shu bois odam rasmini chizishni o'rganish jarayonida inson gavda tuzilishini etarlicha bilish maqsadga muvofiqdir.

Inson tuzilishi bosh suyagi, tana, qo'l va oyoq suyaklaridan iborat bo'lib, ular o'zaro umurtqa suyagi orqali bog'lanib turadi.

Inson gavdasini chizish jarayonida eng avvalo, tasvirlanayotgan ob'ektni nigoh bilan to'liq qamrab olish, gavdadagi harakat plastikasini, nisbatlari va xarakterli tomonlarini qamrab olish zarur. So'ngra olingan taassurotlarning qog'oz yuzasidagi tasvirini oldindan faraz qilib, kompozitsiya tanlash zarur. Keyingi bosqichda tasvirlash lozim bo'lgan hajmli modelning (bu o'rinda inson gavdasi) qaysi holatda turganligini aniqlash va tahlil qilish talab etiladi.

Kiyingan kishi gavdasi rasmini chizgan vaqtda e'tiborni uning kiyimi, burmalariga qaratish emas, balki kiyim ostidagi tananing konstrukstiyasini ko'z oldimizga keltirishimiz lozim.

Ishning boshlang'ich bosqichida gavda harakati, tayanchi, asosiy nisbatlardagi qismlari to'liq aniqlanishi zarur. Chizilayotgan qomat karkasi (bu o'rinda skelet) topilib, kiyintiriladi, so'ngra chiziladi. Rassom A.A.Deyneka bu haqda shunday yozib qoldirgan edi: "Katta shakllarni belgilang va ishning bu bosqichida detallar va muskullarni esdan chiqaring. Ikki oyoqni o'z o'rniga to'g'ri qo'ying. Elka kamariga bo'yin va boshni "bog'lang". Chiziqlarni aniqlang va muskullar xarakteristikasini kiriting".

Endi ish bajarish bosqichlarini ko'rib chiqsak. Birinchi navbatda, butun gavdaning og'irlik markazini topish zarur. Tik turgan gavda bizga stilindni va uning ustida turgan bosh esa tuxumsimon shaklni eslatadi. Bosh qismi yoshga bog'liq bo'lib, bunda o'lchovlar quyidagicha qabul qilingan: 2-3 yoshli bola boshi gavdaning 1/5 qismiga, 7-10 yoshli bolada 6 marta, katta yoshdagi kishilarda esa 7-8 martani tashkil etadi. Shu sababli bosh masshtabdek qabul kilinib, gavdaga qo'yib chiqiladi.

Tik turgan gavdada og'irlik ma'lum bir tayanch maydoniga ega bo'ladi. Agar bu maydondan chetga chiqilsa, muvozanat buzilib, gavda "qulaydi".

O'tkazilgan og'irlik markazi chizig'i asosida gorizont aniqlanadi. Rasm chizish jarayonida sxematik tarzda chanoq suyagini tasvirlash ham foydadan xoli emas. Chanoq, umurtqa pog'onasi va ko'krak qafasi, oyoq holatlarining o'zgarishi asosida gavda shakli ham o'zgaradi.

Figurani umumlashtirgan holda chizib chiqqandan so'ng, rasmning ifodaliligini kuchaytiradigan eng asosiy detallarga qaytish mumkin.

Eng asosiy vazifa nisbatlarni saqlab qolish, plastik muvozanatni buzmaslikdir. Umurtqa pog'onasi o'rta chiziq bo'lib xizmat qiladi. Rasm chizish jarayonida har bir elka suyagining uzunligini topish, unga tirsak va bilak suyaklari qanday birlashganligini va ular qo'l panjasiga qanday birikkanligini

kuzatish lozim. Inson gavdasi karkasi tuzilishiga 3-4 daqiqa vaqt ajratiladi. Shunday qilib, karka topilgandan so'ng, uni "kiyintirishga" o'tish mumkin. Bunda ko'krak, qorin, bel katta stilindr shaklini eslatadi.

Ish kiyimlar va ular ostidagi gavdaning shaklga mos tushishini tasvirlash bilan yakunlanadi. Shuni esdan chiqarmaslik zarurki, har bir chizilayotgan inson gavdasi bir-biridan o'zining individual xususiyatlari bilan ajralib turadi (semiz, oriqlik va h.z.).

Kiyingan kishi gavdasini tasvirlashdan ko'zlangan maqsad u kiygan kiyim emas, balki insonning o'zini, uning tabiiy holatini tasvirlash ekanligini unutmaslik lozim. Talabalar ko'p hollarda kiyim burmalarini chizishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli turli matolarda burmalar turlicha hosil bo'lishini nazardan qochirmaslik kerak. Mato qanchalik qalin va dag'al bo'lsa, shuncha kam burma hosil qiladi. Shu sababli matoni diqqat bilan kuzatib, ko'rinadigan hamma burmalarni emas, balki xarakterli, qiziqarlilarini tanlab chizish mumkin.

Qisqa muddatli rasmlarni chizganda turli xil materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Jumladan, qalam, sangina, ko'mir va "retush" qalami, sous, akvarel, tush va boshqalar. Lekin o'rganish bosqichida yumshoq grafit (M, 2 M) qalamlarida ish bajarish tavsiya etiladi. Qalamda chizilgan har bir chiziqli shakl plastikasini berishini, uzoq va yaqin joylarni tasvirlashda uning kuchidan turlicha foydalanish imkoniyatlari mavjudligini unutmaslik lozim.

Bu o'rinda chiziqli (kontur) muhim o'rin tutadi. Yaxshi natijaga erishish uchun shaklni tahlil qilish, tasvirlashga oid ko'nikma va malakalarni egallash lozim. So'ngra rasm chizishga o'tish mumkin.

Rassom – muallim P.P.Chistyakov bu haqda quyidagicha yozgan edi: "Kimki shaklni ko'ra olmasa, u chiziqli ham to'g'ri tushira olmaydi". Inson gavdasi rasmini chizish jarayonida talaba bir qator tasviriy va o'quv vazifalarini echadi. Bular uning keyingi ijodiy va pedagogik faoliyatida muhim rol o'ynaydi.

Inson gavdasi qalamchizgisini bajarganda quyidagi holatlarga diqqat qilish lozim:

Inson tanasini tasvirlash murakkab jarayon bo'lib, faqat mashq qilgan qo'l va ko'z yordamida aniq nisbatlarni hamda harakatni tasvir etish mumkin.

Chizishdan oldin siz uning harakatini kuzatishingiz, asosiy gavda nisbatlarini aniqlashingiz va kiyim uning gavdasida qanday turishini bilishingiz lozim.

Gavda va oyoqlar nisbati bir-biriga taxminan teng. Elkadan tirsakkacha, tirsakdan qo'l uchigacha bo'lgan masofa taxminan bir xil. Tizza oyoqning yarmisida joylashgan. Bosh qismining gavdaga nisbatlari yoshga bog'liq.

Inson tasviri qalamchizgisida, eng avvalo, asosiy nisbatlarni, ya'ni gavda, oyoq, qo'l va boshqa o'lchamlarini belgilang. Barmoqlar, ko'z, og'iz, burunni aniq chizmasdan, umumiy shaklini toping. Tez qalamchizgida asosiy diqqatni harakat xarakterini topishga qaratish hamda nisbatlarga rioya qilish lozim.

Taxminiy chizgingizni yana bir bor ko'rib chiqing va kerakli tuzatishlar kiriting.

Xotira asosida rasm chizish haqida fikr yuritgan san'at ustalari o'rganuvchida doimiy ravishda kichik o'lchamli albom va qalam bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar. U doimiy ravishda ko'rgan barcha narsasini: inson, odamlar guruhi, tabiat, alohida predmetlarni chizishi lozim. Bu jarayonda ko'z sekin-astalik bilan ko'rgan narsasidagi xarakterli, asosiy joylarni ilg'ab oladi, qo'l esa doimiy harakatda bo'lib, kerakli shaklni tez chiza oladi. Bu haqda XIV asr italyan rassomi Chennino Chennini shunday degan edi: "Bayram kuni ham, ish kuni ham doimiy ravishda rasm chizish bilan shug'ullan va shu asosda tabiatga bo'lgan qiziqishing muntazam mashq natijasida katta tajriba to'planishiga olib keladi".

Shu sababli ko'chada sayr qilgan chog'ingizda, avtobus kutish vaqtingizda tevarak-atrofga diqqat bilan nazar soling, manzaralarni eslab qolishga harakat qiling. Bunda siz esda saqlamoqchi bo'lgan ob'ekt turli-tuman bo'lishi mumkin: manzara, bola, katta kishi, transport vositalari, qurilishlar va qurilish texnikasi va h.z. Uyga kelib, ko'rgan narsalaringizni qog'ozga tushirishga harakat qiling. Ushbu turdagi mashg'ulotlar sizda ko'ruv xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladiki, bu rassom uchun eng kerakli fazilatdir.

Tasavvur asosida rasm chizuvchi talaba umumiy shakl u yoki bu qismining konstruktiv tuzilishi, xarakterini qanchalik to'g'ri tushunishini ko'rsata oladi.


Rasmning to'g'riligini tekshirish uchun tasavvur bo'yicha chizishda ishlatilgan nuqtai nazarga mosini egallash va natura bilan solishtirib, hamma payqalgan kamchiliklarni tuzatish kerak. Bundan tashqari, tasvirdagi rasmni o'z tasavvuri bo'yicha tasvirlash tavsiya etiladi.

Xotira va tasavvur bo'yicha xomaki rasmlarni bajarishda tasvirlanayotgan ob'ekt yaxlitligiga intilib, diqqatni xarakterli xususiyatlarga qaratish zarur. Tabiiyki, naturadan bajarilgan rasmning sifati xotiradan chizilgan rasmdan yuqori bo'ladi. Sezilgan xatoliklar chizuvchini xafa qilmasligi kerak. Chunki doimiy mashqlar vaqt o'tishi bilan turli shakllarni fazoviy hal etishda bilim va kasbiy ko'nikmalar hosil bo'lishiga olib keladi.

Tasavvur asosida chizish shaklni o'rganishda katta ahamiyatga ega. Bunday ishning asosiy vazifasi xayoldan biror predmetni fazoda ma'lum holatda tiklash va uni qog'ozda uch hajmli shaklda ifodalashdan iborat. Xomaki rasmlar kuzatishlar yo'li bilan olingan ko'z tasavvuridan foydalanib bajariladi. Bu jarayonda predmetlarni ixtiyoriy fazoviy holatlarda tasvirlay olish muhim rol o'ynaydi. Agar tasavvurlar naturani qabul qilishga suyanmasa, ular juda umumiy va ancha noaniq xarakter kasb etib qoladi. Aslida ijodiy jarayonda zarur bo'lgan timsoliy tasavvurlar naturani badiiy qabul qilish asosida hosil qilingan va mustahkamlangan tasavvurlardir. Biror predmetni tasavvur bo'yicha chizishni boshlashdan oldin model tuzilishini aniqlashga, uning hajm shaklini va undagi qismlarning fazoda joylashuvini anglashga harakat qilib, naturadan rasm bajarish foydalidir. Undan so'ng shu predmetning o'zini boshqa yo'nalishda tasvirlab, tasavvur bo'yicha qisqa muddatli rasm bajariladi.

Qush va hayvonlar qalamtasviri

Qush va xayvonlar rasmini jonli naturadan chizishga o'tishdan oldin ularning qotirmasi (tulum)da mashq qilish kerak. Bunday mashg'ulotlar chizuvchini hayvonot olamining xarakterli shakllari bilan tanishtiradi, yaxlit ko'ra olish qobiliyatini o'stiradi.




62-rasm. Qushlar qalamchizgilari.

Modelning umumiy shaklini, unga taalluqli xarakterlarni tez ilg'ab olishga harakat qilish kerak (63- rasm). Ishni boshlashdan oldin tasvirlanuvchi hayvon yoki qush skeleti tuzilish xususiyatlari bilan tanishish maqsadga muvofiq bo'lib,

bu keyingi ishni ongli ravishda bajarish, hamma vaqt tashqi qatlam ostidagi skelet suyaklarini his etishga imkon yaratadi. Qo'llanmada qush va hayvonlarning bir qator skelet asoslari, rassomlar, talabalar tomonidan bajarilgan ishlardan namunalar keltirilgan.

O'qituvchi – rassom uchun muhim bo'lgan sinf doskasida rasm ishlash ko'nikmasini hosil qilish uchun qush va hayvonlar qotirmasi yuzasini bo'yashda tus munosabatlarini va modelni yoritish sharoitlarini hisobga olmay, xomaki rasmlar bajarilishi tavsiya qilinadi.



63-rasm. Qushni tasvirlash usuli.

Hayvon yoki qush shakli to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun turli burilishlarda qo'yilgan qotirmalarning o'ziga qarab, so'ng xotira va tasavvur asosida xomaki rasmlar bajarish kerak. Hayvon va qushlar qotirmasi asosida tasvirlar bajarishda ma'lum tajribaga ega bo'lib, keyin jonli naturadan rasmlar bajarishga o'tish mumkin. Hayvon va qushlarni turli holatlarda diqqat bilan kuzatish ularning gavdasi, harakatlari aniqligi tufayli tomoshabinda kuchli taassurot qoldiradi. Mahorat bilan bajarilgan ishlarni ko'rganda chizuvchi rassomlarning natura ustida ishlash hamda ko'ruv xotirasi kuchi boyligiga guvoh bo'lamiz. Ularning tasvirlanayotgan qush va hayvonlarga xos xarakterli xususiyatlarni va plastikani chuqur bilishlari ko'rinib turadi.

Rassom qush va hayvonlarni chizishda o'z oldiga dastlab umumiy shakllarni aniqlashni, keyinchalik esa shaklning xarakterli chiziqlarini aniqlashtirib ifodalash vazifasini qo'yish kerak. Qush va hayvonlar muntazam harakatda bo'lganligi bois xomaki rasmlar bir necha variantda ularning o'ziga qarab chiziladi. Keyin muvaffaqiyatli chiqqan ish keyingi ijodiy faoliyat uchun qabul qilinadi.



64-rasm. Qushlarni tasvirlash.

Mashhur animalist rassom V.A.Vatagin o'zining "Hayvonlar tasviri" kitobida qush va hayvonlar xomaki rasmini ishlashda quyidagi usulni qo'llashni taklif qiladi: "Siz, masalan, o'tirgan quyonni chizyapsiz. U holatini o'zgartiradi, siz uni chizib olishga ulgurmadigiz. Rasmni tugatmay qoldiring va darhol quyon qabul qilgan ikkinchi holatni chiza boshlang, so'ng uchinchisini va h.z. Sizda bir hayvonning turli holatlardagi va turli darajadagi bir guruh rasmlari zaxirasi hosil bo'ladi. Hayvonlar hayvonot bog'i sharoitida chegaralangan harakatlarga ega bo'lib, ko'pincha bir xil holatlarni takrorlashadi. Chizuvchi tugatilmagan holatlarga qaytib, ularni nihoyasiga etkazish imkoniga ega".

Sokin holatdagi hayvonlarning xomaki rasmini ishlashda shaklni aniqlovchi asosiy yorug' – soya munosabatlarini ifodalash mumkin.

O'quv topshiriqlarida qush va hayvonlarning qoramalarini bajarish ko'zda tutilgan. Vazifani bajarishdan ko'zlangan asosiy maqsad qushlar va hayvonlarning umumiy ko'rinishi va ularning asosiy xarakterli holati, harakatlarini tasvirlashdir.

Hayvonlarning harakatlari odam harakatlari singari turli-tumandir. Lekin qush va hayvonlarni naturachi kabi ma'lum bir holatda turishga majbur qilib bo'lmaydi. Shu sababli rassom – pedagogning qush va hayvonlar anatomiyasini yaxshi bilishi naturaning umumiy holatini tez ilg'ab olishga yordam beradi. Qush va hayvonlarning xomaki rasmini bajarish talabalarda ko'pgina foydali malakalarni, jumladan naturani kuzatgan holda grafik vositalar yordamida tez va malakali rasm chizishni shakllantiradi.

Ishni nafaqat qalamda, balki sangina, tush, pero, akvarel va h.z. bajarish mumkin (64- rasm).


Biror qushni chizishdan oldin uni kuzating: gavda tuzilishi, bosh qismi nisbati qanday? Tumshug'i qaysi shaklda, u qanday harakatlanadi, uchadi?

Qushlar tez harakatlanuvchi bo'lganligi sababli ularning tulumidan foydalanish mumkin. Masalan, qarg'a qanday chiziladi? Biz quyida uni chizish bosqichlarini keltiramiz.

Qarg'aning bosh qismi katta, gavdaga birlashib ketgan, o'rtacha kattalikda tumshuq, uzun dum va qanotlardan tashkil topgan. U o'zi qo'ngan butaga oyog'ini qattiq bosib, panjalari bilan qisib turibdi. Bosh qismi xuddi allaqanday ovozni eshitayotgandek diqqat bilan burilgan. Bosh qismi cho'ziq sharsimon, qorin qismi tuxum shaklida.

Yuqoridagilarga asoslanib, bosh shakli va gavdani o'zaro nisbatlarini saqlagan holda belgilab olamiz. Bosh, gavda, dum holatlariga qarab, taxminiy o'q chizig'ini o'tkazamiz. Tumshuq o'rtasidan chiziqni, dum uzunligini va uning gavdaga nisbatan o'lchamini belgilab olamiz.

Nisbatlar to'g'riligini yana bir bor tekshirib, belgilangan shakllarni aniq chizamiz. Ko'krak qafasi, qanotlarni chizib olamiz. Oyoqlar shaklini aniqlaymiz. Panjalar to'rtta: uchasi oldinda, biri orqaga qayrilgan. Har bir panjada uzun tirnoq. Shundan so'ng tumshuq, ko'z rasmini chizamiz. Chiziq, shtrixlar vositasida xarakterli joylarni beramiz.



65-rasm. Fillar tasviri.



66-rasm. O'quv rasmi.



67-rasm. Otlar qalam tasviri.



68-rasm. Ot qalam tasviri.



69-70-rasm. Otlar tasviri.

Bob bo'yicha mustahkamlash va nazorat savollari:

1. Qisqa muddatli rasmning maqsad va vazifalari.
2. O'ziga qarab xotira va tasavvur orqali rasm chizish haqida ma'lumot bering.
3. Tez rasm chizishning vazifalari.
4. Tez rasm chizishda ishlatiladigan materiallar.
5. Qisqa muddatli rasmning badiiy ifoda vositalari.
6. Qisqa muddatli rasmlarning ahamiyati.
7. Qisqa muddatli rasmda chizilayotgan voqea-hodisalar.
8. Qisqa muddatli rasm chizish haqida rassomlar fikrlari.
9. Pedagogik rasmda qush va hayvonlar tasviri.
10. Pedagogik rasmda odamlar guruxini tasvirlash metodi.
11. Pedagogik rasmda manzarani tasvirlash metodi.
12. Sinf doskasida qisqa muddatli rasm bajarish tushunchasi

Tayanch so'z va atamalar lug'ati:

Avtoportret – potret tasvir, unda rassom o'zini tasvirlaydi

Assimetriya – simmetriyasizlik (nomutanosiblik)

Antik – qadimiy

Apollon – qadimgi grek mifologiyasida – Quyosh xudosi, san'at homiysi

Atlanta – arxitektura peshtoqlarini ko'tarib turuvchi, erkak figurasi shaklidagi ustunlar

Akademik uslub – Uyg'onish davri va qadimgi davr san'ati shakllariga asoslangan uslub

Afsonaviy janr – xalq ogzaki ijodi asosida tasviriyl san'at namunalarini aks ettiruvchi janr

Badiiy an'ana – qadimdan inson faoliyatining adabiyot, san'at qabi sohalarida erishilgan va saqlanib qolingani ilgor yutuklar va tajribalar majmui

Baget – tayor rasm, suvrat qabilarni ichiga joylashtirish uchun mo'ljallangan va sirti o'yma, metall yoki ganch naqshlar bilan bezatilgan to'rtburchakli moslama

Blik – narsa va tasvirlarning eng yorug, yaltiroq joyi

Byust – fransuzcha so'z bo'lib, "ko'krak" ma'nosini anglatadi. U odamning ko'krigidan yuqori qismini tasvirlaydigan haykal hisoblanadi.

Garmoniya – bog'liqlik, uyg'unlik, mutanosiblik

Gravyura - fransuzcha so'z bo'lib, "o'yish" ma'nosini bildiradi

Detal – naturaning ma'lum bir qismi

Drapirovka – fon uchun ishlatiladigan har xil rangli matolar

Yorugsoya – (yorug va soya) tasviriyl san'at nazariyasiga doir atama

Yorug (shu'la) - tasviriyl san'atning nazariy asoslariga oid atama bo'lib, nur va soya qonuniga tegishlidir

Janr – hayot lavhalari, qo'rinishlarini uning mazmuniga ko'ra tasvirlovchi badiiyl asar turidir.

Zarisovka – tugallanmagan rasm, chizgi

Illyustrasiya – lotincha ko'rgazmali tasvirlash, yoritish ma'nosini anglatadi.

Kartina – tasviriyl san'at asari

Komponovka – chizilishi kerak bo'lgan naturani qog'ozga to'g'ri joylashtirish

Kompozitsiya – tuzish, bir-biriga ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish va birlashtirish

Kompozitsiya qonunlari - tasviriyl san'atda yaratiladigan badiiyl asarlarning goyasi, mazmuni hamda badiiyligini tartibga soluvchi nazariy tushuncha

Kontrast – qarama-qarshilik, zidlik

Maska – niqob, san'atda David, Apollon yuz qismining gips nusxalari tushuniladi

Molbert – rasm ishlash uchun moslama

Model – namuna

Pastel – rassomchilikda ishlatiladigan rangdor yumshoq qalam. Tarkibi bo'yoq, bo'r va bog'lovchi moddadan iborat

Perspektiva – rasmda uzoqdan ko'ringan narsalarning tegishli kattalikda berilishi, qisqarish

Nabroska – xomaki ish, qoralama, xarakterli chiziq va shtrixlar yordamida tez bajarilgan chiziqli rasm

Natyurmort – tasviriy san'at janri (franstuzcha – jonsiz tabiat majmui)

Rakurs – suratda chizilayotgan uzoqdagi figura va buyumlarni kichraytirib ifodalash

Shaxsiy soya – tasvirlanayotgan narsalarning sirtidagi o'z soyasi.

Shtrixlash – qalam yoki shu kabi ish qurollari bilan rasm chizganda qo'llaniladigan uslub.

Siluet – kishi, hayvon, qush kabi narsalarning soyaga o'xshatib ishlangan rasmi


Sangina – rassomchilikda ishlatiladigan yumshoq to'q qizil qalam

Tushuvchi soya – predmetdan tushayotgan soya


Portret – fransuz so'zidan olingan bo'lib “tasvir” aniqrogi “odam tasviri” ma'nosini anglatadi.

Plastik anatomiya – anatomiya bo'limi. Bunda inson tanasi nisbatlari, ichki tuzilishi va tana tashqi shaklining harakat vaqtida o'zgarishi o'rganiladi. Asosiy e'tibor skelet tuzilishi, muskullar, suyak va muskullar birlashishiga qaratiladi.


Pedagogik rasmdan namunalar




71 - rasm. Kubni chizish tartibi




72 - rasm. Kubni chizish bosqichlari




73 - rasm. Silindrni chizish bosqichlari




74 - rasm. Sharni chizish bosqichlari




75 - rasm. Konus chizish bosqichlari




76 - rasm. Natyurmortni bosqichma – bosqish tasvirlash tartibi




77 - rasm. Natyurmortni bosqichma – bosqish tasvirlash tartibi



78 - rasm



79 - rasm.



80-rasm.




81-rasm



82- rasm




83- rasm.




84 - rasm




85-rasm.




86 - rasm.




87 - rasm Kapalakni bosqichma – bosqish tasvirlash tartibi




88 - rasm Daraxtni bosqichma – bosqish tasvirlash tartibi




89 - rasm Baliqni bosqichma – bosqish tasvirlash tartibi




90 - rasm Olmaxon va quyonni tasvirlash




91 - rasm O'rdakni bosqichma – bosqish tasvirlash tartibi




92 - rasm Otni bosqichma – bosqish tasvirlash tartibi




93 - rasm Tulkini tasvirlash




94 - rasm Itni tasvirlash




95 - rasm. Qushlarni tasvirlash




96 - rasm Sinf taxtasiga tulkini tasvirlash



97 - rasm Sinf taxtasiga odamlarni tasvirlash



98 - rasm Sinf taxtasiga kiyikni tasvirlash



99 - rasm Kiyikni tasvirlash




100 - rasm Sinf taxtasiga echkini tasvirlash



101 - rasm Sinf taxtasiga harakatdagi odamni tasvirlash




102 - rasm



103 - rasm Fil qoralamasi



104 - rasm Harakatdagi ayol qoralamasi



105 - rasm Pedagogik rasmlar

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Toshkent, 1997.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
3. Abdullaev S.F, Mahmudov. A.T. Qalam tasvir gips modellarini chizish. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2011.
4. Abdullaev N. San'at tarixi. Toshkent: "San'at", 2001.
5. Azimov B. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. Toshkent: "O'qituvchi", 1984.
6. Boymetov B. Qalamtasvir. Pedagogika institutlari va universitetlari uchun o'quv qo'llanma. T., 1977.
7. Boymetov B. Portret qalamtasviri. Toshkent, TDPU, 2001.
8. Abdurasulov S., Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san'at. T., 2006.
9. Abdurasulov S., Boymetov B. Chizmatasvir. Toshkent: "Cho'lpon", 2004.
10. Rostovstev N. Uchebnyy risunok. M: "Prosveshenie", 1985.
11. Rostovstev N. Akademicheskiy risunok. M: "Prosveshenie", 1985.
12. Rostovstev N. Istoriya metodov obucheniya risovaniyu. M: "Prosveshenie", 1981.
13. Maxmudov T. Estetika jivopisi Uzbekistana. T., 1982.
14. Rabinovich M.II. Odam, to'rt oyoqli hayvonlar va parrandalar plastik anatomiyasi. Toshkent: "O'qituvchi", 1980.
15. Shkola izobrazitelnogo iskusstva. M: "Iskusstvo", 1964-1980.
16. Kuzin V.S. Psixologiya. M: "Visshaya shkola", 1982.
17. Sharoxov E.V. Kompozitsiya. M., 1994.
18. Hasanov R. Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent: «O'qituvchi», 1984.
19. Qobilov Sh. R. Qalamtasvir fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish va o'tkazish. Metodik qo'llanma. Buxoro 2010.
20. Samadov O. Abdullaev S. Odam boshini tasvirlash. Buxoro, 1992.
21. Tolebiev A. Suret salu bilesinbe? (qozoq tilida).Alma-ata: "Oleg"

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
1-bob. Pedagogik rasm asoslari	
Pedagogik rasmni oʻqitish vazifalari	5
Rasm chizish sanʼati tarixidan.	12
Badiiy idrok etishning kompozitsion usullari.....	26
Pedagogik rasmda ijodiy yondashish.....	31
Bob boʻyicha mustahkamlash va nazorat savollari.....	36
2-bob. Pedagogik rasm bajarishning asosiy qonun-qoidalari	
Pedagogik rasmda badiiy materiallar.....	37
Pedagogik rasmda kompozitsion yechim	48
Rasm chizishning didaktik asoslari.....	52
Chiziqli va konstruktiv tuzilish.....	57
Yaxlitlik va tus munosabatlari.....	61
Bob boʻyicha nazorat va mustahkamlash uchun savollar.....	64
3-bob. Pedagogik rasmda qisqa muddatli ishlarning ahamiyati	
Qisqa muddatli rasmlar bajarish.....	65
Manzarani tasvirlash usullari	72
Odamlar guruxini tasvirlash.....	77
Qush va hayvonlar qalamtasviri.....	88
Bob boʻyicha nazorat va mustahkamlash savollari.....	95
Tayanch soʻz va atamalar lugʻati.....	96
Pedagogik rasmdan namunalar.....	98
Adabiyotlar roʻyxati.....	120

Оглавление

Введение.....	3
 1 – глава. Основы педагогического рисования	
Задачи обучения педагогическому рисунку.....	5
Из истории искусства обучения рисунку.....	12
Композиционные приёмы художественного отображения.....	26
Творческий подход к педагогическому рисованию.....	31
Контрольные вопросы к содержанию первой главы.....	36
 2 – глава. Основные закономерности выполнения педагогического рисунка	
Художественные материалы, используемые в педагогическом рисунке....	37
Композиционное решение педагогического рисунка.....	48
Дидактические основы рисования.....	52
Линейное и конструктивное построение.....	57
Цельность и тоновые отношения	61
Контрольные вопросы к содержанию второй главы.....	64
 3 – глава. Значение краткосрочных работ в педагогическом рисунке	
Выполнение краткосрочных рисунков.....	65
Методы изображения пейзажа.....	72
Наброски группы людей.....	77
Рисование птиц и зверей.....	88
Контрольные вопросы к содержанию третьей главы.....	95
 Краткий словарь терминов и опорных слов.....	96
Образцы педагогических рисунков.....	98
Список литературы.....	120

Contens

Introduction.....	3
Chapter I. The Bases of pedagogical drawing.	
The task of teaching of pedagogical pictures.....	5
From the history of art of painting draw.....	12
The compositional method of Artistic.....	26
Creative in pedagogical pictures.....	31
Strengthening and control works over the chapter.....	36
Chapter II. The main rule of doing pedagogical pictures.	
Creative materials in pedagogical picture.....	37
Compositional solution in pedagogical drawing.....	48
Didactic Bases of drawing pictures.....	52
Linely and constructive struction.....	57
The connection of works – in.....	61
Strengthening and control works over the chapter.....	64
Chapter III. The importanse of short period in pedagogical drawings.	
To do short periodly works.....	65
The method of representing the landscape.....	72
Representing the group of people.....	77
The painting of birds and animals.....	88
Strengthening and control works over the chapter.....	95
 The vocabulary of words and expressions.....	 96
Examples of pedagogical drawing.....	98
The list of literature.....	120